جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 5-iyul
№ 28(28)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli rais!

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammiti barcha ishtirokchilarini qutlashdan mamnunman. Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga samimiy qabul va bugungi uchrashuvimiz yuksak darajada tashkil etilayotgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Belarusning ShHTga qo‘shilish jarayoni yakuniga yetgani bilan tabriklayman. Bu, hech shubhasiz, sheriklikning qo‘shimcha imkoniyatlarini ochadi. Ushbu voqea munosabati bilan hurmatli Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoni samimiy qutlayman.

Biz Qozog‘istonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga faol va samarali raisligi yakunlarini yuksak baholaymiz, bugungi majlisimiz kun tartibiga kiritilgan masalalar va qarorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Ushbu sammit xalqaro vaziyat keskinlashayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Yangi vayronkor mojarolar paydo bo‘lmoqda, global va mintaqaviy xavfsizlikka xavf va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bu davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch kamayayotgan, qarama-qarshilik va ziddiyatlar ortishi natijasida geosiyosiy keskinlik tobora o‘sayotgan vaziyatda kechmoqda.

Xalqaro huquq me’yorlari va tamoyillari tez-tez buzilmoqda. Tobora kuchayib borayotgan inqiroz va muammolarni hal qilish bo‘yicha jahon hamjamiyatida mavjud bo‘lgan vositalar, afsuski, o‘zining samaradorligini yo‘qotdi.

Bunday murakkab vaziyatda ShHTning asosi bo‘lgan tamoyillarga sodiqligimizni saqlash va yanada mustahkamlash favqulodda muhimdir. Ana shu tamoyillar tufayli Tashkilot bugungi yutuqlarga erishdi, xalqaro masalalarda yuksak nufuz va barqarorlashtiruvchi o‘ringa ega bo‘ldi.

Kelgusida ham “Shanxay ruhi”ning mustahkam zamini bo‘lgan tamoyillar – o‘zaro ishonch va manfaat, tenglik, madaniyatlar rang-barangligiga hurmat va umumiy taraqqiyotga intilish, qarorlar qabul qilishda konsensus tamoyilining o‘zgarmasligi va Tashkilotning bloklardan xoli maqomini saqlab qolish, uning ochiqligi, uchinchi mamlakatlarga qarshi qaratilmagani, iqtisodiy, harbiy va siyosiy salohiyatidan qat’i nazar barcha ishtirokchilarning teng huquqliligi va suverenitetini hurmat qilishga qat’iy rioya etish muhim, deb hisoblaymiz.

Hozirgi kunda ShHT hamjihatligi zaiflashishiga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Biz “ShHT oilasi” jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga izchil tatbiq etib, ochilayotgan yangi imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz zarur.

Buning uchun bizda barcha shart-sharoitlar mavjud. Jahon aholisining 40 foizdan ortig‘i, global yalpi ichki mahsulotning chorak qismidan ko‘prog‘i mamlakatlarimiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Hech shubhasiz, ushbu beqiyos salohiyatni ro‘yobga chiqarish bizdan iqtisodiy sheriklikning yangi modellarini shakllantirishni va ShHT doirasida barqaror rivojlanishning uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Shuni ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston 2030-yilga borib milliy iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirishga qaratilgan chuqur o‘zgarishlarni davom ettirmoqda. Bunga, avvalo, innovatsion va yuqori texnologiyali tarmoqlarni shakllantirish, “yashil” va raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanadigan energetika ulushini tubdan oshirish hisobidan erishishga intilyapmiz.

Hurmatli hamkasblar!

Bizning nuqtai nazarimiz bo‘yicha ShHT oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishga ijozat bergaysiz.

Birinchi. Global darajada ishonch taqchilligi misli ko‘rilmagan darajaga chiqqan sharoitda umumiy xavfsizligimizni ta’minlashda yangi yondashuvlarni izlash zarurati o‘sib bormoqda.

Shu bois, hozirgi paytda umumiy xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lidagi hamjihatlik bo‘yicha biz ilgari surgan Samarqand tashabbusining ahamiyati har qachongidan ham dolzarbdir.

ShHTning Yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksi qabul qilinishi hozirgi yangi sharoitda muloqotni mustahkamlash va ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi. Iqtisodiy sohada hamkorlik bo‘yicha strategik yuksalishga erishish.

O‘zbekistonning Tashkilotga a’zo davlatlar bilan savdo aylanmasi o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha 20 foiz, joriy yil boshidan buyon esa yana 15 foizga o‘sdi.

ShHT doirasida savdo jarayonlarini soddalashtirish bo‘yicha bitimni ishlab chiqish vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Hujjatga savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish, texnik reglamentlar va sertifikatlash, fitosanitariya va veterinariya nazorati tizimlarini yaqinlashtirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha jahondagi tendensiyalarni hisobga olgan holda, ushbu sohada amaldagi raqamli savdo platformalari integratsiyasini ko‘zda tutuvchi hamkorlik dasturini tayyorlashni taklif etamiz.

Uchinchi. Sanoat kooperatsiyasi dasturlarini qo‘llab-quvvatlash.

Eng avvalo, infratuzilma, sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taklif etamiz. Bunda ushbu loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini puxta o‘ylab ko‘rish, ShHT Jamg‘armasi va Taraqqiyot bankini tashkil etish masalasini ko‘rib chiqishga qaytish muhim.

(Davomi 2-sahifada).

ANJUMAN

ZOMIN TOG‘LARIDA ILHOM JILVASI

Shavkat MIRZIYOYEV:

“Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma’naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, boy ma’naviyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni hozirlaymiz”.



(4-5-sahifalarda o‘qing).

MANGU LAHZA



Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston xalq shoiri

KAROMAT

Quduqda suv aziz, tandirda-chi – non,
Tog‘larning bisoti necha-necha kon.
Bel bog‘lab maydonga chiqdingmi, endi
Sen ham bir karomat ko‘rsat, ey o‘g‘lon!


2009-yil Zomin seminarida o‘qilgan.



BUGUNNING GAPI

YURTIMIZNING TURIZM IMKONIYATLARI:

Janubiy Koreya tajribasi



Turizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Hozirgi global raqobat sharoitida har bir davlat ilg‘or tajribalar va innovatsiyalar asosida turizm bozorida o‘z mavqeyini yaxshilashga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Janubiy Koreya tajribasi O‘zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.

Shubhasiz, mamlakatimizning boy madaniy merosi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz shaharlaridagi noyob tarixiy obidalar dunyo ahlini doimo o‘ziga rom etib keladi. So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, transport tarmoqlari, mehmonxona xizmatlari va sayyohlik obyektlari faoliyatini takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilib, salmoqli investitsiya kiritilmoqda. Buning natijasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda bu borada xalqaro ahamiyatga ega marketing kampaniyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish zarurati mavjud.

Janubiy Koreyada puxta o‘ylangan rejalar va innovatsion yondashuvlar tufayli sayyohlar oqimini sezilarli darajada oshirishga muvaffaq bo‘lingani e’tiborga loyiq. Buni statistik raqamlar ham tasdiqlaydi. Xususan, 2023-yilda ushbu mamlakat 11 millionga yaqin sayyohni qabul qilgan. O‘tgan o‘n yilliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2000-yildan buyon Janubiy Koreyaga tashrif buyuruvchilar soni muttasil ortib borgan. Birgina 2019-yilda 17,5 milliondan ortiq sayyoh Janubiy Koreyaga safar qilgan. Biroq koronavirus pandemiyasi tufayli 2020-yilda dunyoning boshqa mamlakatlari qatori Janubiy Koreyaga ham tashrif buyuruvchilar soni 85 foizdan ko‘proqqa, 2021-yilda esa oldingi yilga nisbatan 62 foizga kamaygan. 2022-yildan bu borada yana ijobiy o‘sish ko‘zga tashlana boshladi.

Ayni paytda turizm mamlakat iqtisodiyotiga mo‘maygina daromad keltirmoqda. Janubiy Koreyada ommaviy madaniyat (bu o‘rinda ayni paytda butun dunyoda jiddiy muammoga aylangan “ommaviy madaniyat” illati emas, balki Koreya milliy madaniyatini o‘zida aks ettirgan “K-pop”, “K-drama” singari yo‘nalishlar nazarda tutilmoqda), rivojlangan transport infratuzilmasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish va yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatishga qaratilgan samarali marketing kampaniyalari yo‘lga qo‘yilgani muvaffaqiyatning asosiy omili bo‘lmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

To‘rtinchi. “Sharq-G‘arb” va “Shimol-Janub” yo‘nalishlari bo‘yicha inklyuziv transport tizimlarini shakllantirish mamlakatlarimiz iqtisodiy salohiyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Alohida ta’kidlab aytaman: transport yo‘laklari ko‘p variantli bo‘lishi – bu butun mintaqamiz barqaror rivojlanishining eng muhim shartidir.

Shuningdek, Logistika jarayonlarini raqamlashtirish rejasini ishlab chiqish, shu jumladan, mamlakatlarimiz chegaralari orqali o‘tadigan mahsulotlar haqidagi ma’lumotlarning elektron almashuvini tashkil etishni taklif qilamiz.

Beshinchi. ShHT makonida zamonaviy va ishonchli energetika infratuzilmalarini kengaytirish.

Biz O‘zbekistonda “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dasturni qabul qildik. Yiliga ikki gigavatt quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirmoqdamiz. Sanoat darajasida “yashil” vodorod ishlab chiqarish loyihasi ustida ish boshlandi.

Qayta tiklanadigan energetikaga investitsiya va texnologiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish bo‘yicha hamkorlikning kompleks rejasini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Oltinchi. Jadallashtirilgan raqamli transformatsiya.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, “sun’iy intellekt”ni, ilg‘or IT-qarorlarni joriy etish mamlakatlarimiz raqobatbardoshligida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu borada bilimlar, tajriba va eng yaxshi amaliyotlar almashuvi, IT-parklarning tizimli hamkorligini rivojlantirish maqsadida “ShHT kelajak texnologiyalari” dasturini ishlab chiqish tarafdorimiz.

Yettinchi. Ijtimoiy rivojlanish va himoya sohasida ShHT mamlakatlari hamkorligi bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish imkoniyatini ko‘rib chiqishni taklif etamiz.

Ishonchim komilki, aholi hayot darajasini yuksaltirish va hududlarni, birinchi navbatda, qishloq joylarni rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalarni amalga oshirish 2030-yilgacha mo‘ljallangan eng muhim maqsadlarga erishish yo‘lida umumiy hissa bo‘ladi.

Sakkizinchi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ularni yetkazib berish imkoniyatlari nomma-nom aks ettirilgan mamlakatlarimizning agrosanoat sohasidagi salohiyati haqidagi ma’lumotlarni birlashtiradigan “ShHT oziq-ovqat xavfsizligi atlasi” qo‘shma elektron platformasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Xavfsizlikka tahdid solayotgan zamonaviy xavf va xatarlarga qarshi kurashishda mamlakatlarimiz vakolatli organlari faoliyatini yaqindan muvofiqlashtirishni, shu jumladan, ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi yo‘nalishida davom ettirish zarur.

Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo‘lgan va mintaqaviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadigan qo‘shni Afg‘onistondagi vaziyat haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Afg‘onistonning hozirgi ma’muriyati bilan munosabatlarni o‘rnatish borasidagi yondashuvlar turli ekani ma’lum. Aminmanki, Kobul bilan muloqotlarni saqlash butun mintaqaning xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot borasidagi manfaatlariga mos keladi. Tobora ko‘proq davlatlar buni tushunib yetmoqda.

Shu munosabat bilan, “ShHT – Afg‘oniston” muloqot guruhining faoliyatini qayta tiklash haqidagi taklif hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sammitimiz ShHTning doimiy faoliyat yurituvchi organlari – Pekin shahridagi Kotibiyat va Toshkent shahridagi Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo‘mitasi tashkil etilganiga 20 yil to‘lgan yilda o‘tmoqda. Qisqa davrda ular sheriklikning samarali mexanizmi sifatida mustahkam qaror topdi va ko‘p tomonlama institutlar o‘rtasida munosib o‘rin egalladi.

Biz ShHTni yanada rivojlantirish jarayonlari tarafdorimiz va Tashkilotimizning faoliyatini takomillashtirish haqidagi taklifni qabul qilishga tayyormiz.

So‘zimning yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni Xitoy Xalq Respublikasi qabul qilib olayotgani munosabati bilan hurmatli Si Szinpin Janobi Oliylariga bildirilgan tabrik so‘zlariga qo‘shilaman.

O‘zbekiston ShHT doirasida ko‘p qirrali sheriklikni yanada kengaytirishga sodiq ekanini yana bir bor tasdiqlayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

YURTIMIZNING TURIZM IMKONIYATLARI:

Janubiy Koreya tajribasi

Boshlanishi 1-sahifada.

Janubiy Koreyada turizm industriyasi XX asrning 60-yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan uzoq muddatli islohotlar yo‘lini bosib o‘tdi. 1962-yilda Janubiy Koreyada turizm sohasini boshqarish va rivojlantirish maqsadida Transport va turizm vazirligi tashkil qilindi. 1967-yilda esa mamlakatni xalqaro sayyohlik yo‘nalishi sifatida targ‘ib qilishga ixtisoslashgan Koreya turizm tashkiloti (KTO) faoliyat boshladi.

1970-1980-yillarda ushbu mamlakatda faol infratuzilma rivojlana boshlandi. Bu davrda transport va mehmonxona infratuzilmasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Yangi xalqaro aeroportlar ochildi, ichki transport tarmog‘i yaxshilandi. Birinchi yirik turizm loyihalari va obyektlari, jumladan, istirohat bog‘lari, madaniyat markazlari paydo bo‘ldi.

1990-yillarda innovatsiyalar va ommaviy madaniyat taraqqiyotining yangi davri boshlandi. 1994-yilda xorijiy sayyohlarni jalb qilish maqsadida “Koreyaga tashrif” dasturi ishga tushirildi. Koreya milliy madaniyatini faol targ‘ib qilish natijasida dunyo yoshlarining bu mamlakatga qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

2000-yillarda Janubiy Koreya turizm sanoatini diversifikatsiya qilish va globallashtirishni davom ettirdi. Tibbiy turizm, madaniy sayohat kabi yangi yo‘nalishlar yo‘lga qo‘yildi. Ko‘plab mamlakatlar fuqarolari uchun vizasiz kirish tartibi joriy etilishi natijasida xorijiy sayyohlarning Janubiy Koreyaga borishi osonlashdi. 1988-yilda Seulda va 2018-yilda Pxyonchxanda Olimpiada o‘yinlarining o‘tkazilishi ham millionlab sayyohlarning ushbu o‘lkaga qiziqishi kuchayishida muhim rol o‘ynadi.

Asrimiz boshlaridan bu yerda “Hallyu” (“Koreya to‘lqini”) dasturining joriy etilishi ham turizm sohasini yuksaltirishda o‘ziga xos qadam bo‘ldi. Hukumat koreys madaniyati, jumladan musiqa, kino va televideniyesini xorijda targ‘ib qilishni faol qo‘llab-quvvatladi.

Infratuzilmaga investitsiyalar kiritilishi ham yaxshi natijalar berdi. Incheon xalqaro aeroporti modernizatsiya qilinib, tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilishi natijasida mamlakatdagi yirik shaharlar va sayyohlik markazlari bir-biri bilan uzviy bog‘landi.

Istirohat bog‘lari va “Koreys folklor qishlog‘i” kabi sayyohlik hududlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi natijasida ushbu maskanlar mashhur sayyohlik markazlariga aylandi. Masalan, “Lotte World Adventure” (“Lotte dunyosiga sayohat”) katta istirohat bog‘iga 2022-yilda 4,52 million kishi kelgan. Koreya Milliy muzeyi – Koreya tarixi, madaniyati va san’ati maskani sifatida 3,4 million kishini qabul qildi. Koreyaning Joseon sulolasidan qolgan yodgorlik bo‘lmish qadimiy saroy majmuasi 3,39 million mehmonni qabul qildi.

Muayyan yillarda sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan maxsus dastur va aksiyalarning amalga oshirilgani ham o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Bunday tashabbuslar millionlab sayyohlarni jalb etish bilan bir qatorda Janubiy Koreyaning xalqaro obro‘sini yanada oshirishga xizmat qildi.

O‘tgan yillar davomida turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada o‘sdi. Xususan, 2019-yilda turizm sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 4,2 foizini tashkil etdi. Turizmning rivojlanishi transport, chakana savdo kabi bir qator turdosh sohalarda ham juda ko‘plab ish o‘rinlari yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Koreyada turizm bo‘yicha marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilgani amalda yaxshi natijalar berdi. Ayniqsa, mamlakatni sayyohlik maskani sifatida targ‘ib qilishda koreys madaniyatidan unumli foydalanildi. Yuqorida tilga olingan “K-pop” va “K-drama” global hodisaga aylanib, butun dunyoda millionlab muxlislarga ega bo‘ldi. “BTS” kabi mashhur koreys musiqa guruhlari va bir qator dramatik seriallar chetda bu mamlakatga qiziqish ortishiga xizmat qildi.

“Koreyangizni tasavvur qiling” kabi marketing kampaniyalari ham Janubiy Koreyani dunyoga



kengroq tanitishda yordam bermoqda. Bu tashviqot kompaniyalari koreys madaniyati, tabiati va zamonaviy hayotining o‘ziga xos jihatlarini faol yoritib kelmoqda. “Visit Korea Year” (“Koreyaga safar yili”) kabi maxsus dasturlar ham turizmni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro imijini oshirishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyada sayyohlik inshootlari va turistlar uchun yaratilgan qulayliklar sifati yuqori darajada. Sayyohlik hududlari muntazam rivojlantirib borilib, tashrif buyuruvchilar uchun jozibali shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Yana bir e’tiborli jihati, bu yerda turizm sohasida innovatsiyalar va texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Sayyohlik xizmatini yanada yaxshilash uchun raqamli texnologiyalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Turli mobil ilovalar sayyohlarga mamlakat bo‘ylab sayohatga chiqish, chiptalarni oldindan band qilish va diqqatga sazovor maskanlar haqida ma’lumot olishda yordam bermoqda. Virtual sayohatlar esa Janubiy Koreyaga tashrif buyurishni rejalashtirgan xorijliklarga o‘zlari ko‘rishni istagan maskanlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishish va sayohatini rejalashtirish imkonini beradi.

Ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda “aqlli shahar”lar va sayyohlik hududlarini rivojlantirish Janubiy Koreyani sayyohlar uchun yanada jozibador qiladi. Shuningdek, bu yerda intellektual transport tizimlari va yuqori tezlikdagi internet aloqasi yo‘lga qo‘yilgan.

Janubiy Koreyada turizm sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratiladi. Ularga koreyscha mehmondo‘stlik sir-asrorlari muntazam o‘rgatiladi. Mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik obyektlarda yuqori darajada xizmat ko‘rsatishga oid o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Turizmni rivojlantirish bo‘yicha yuritilayotgan izchil siyosat natijasida ushbu soha mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim drayveriga aylangan. O‘zbekiston Koreya tajribasidan ko‘plab foydali saboqlarni o‘rganishi, ularni o‘zining noyob sharoitlari va resurslariga moslashtirishi mumkin.

Umuman, 2010-2019-yillarda Janubiy Koreyada turistlar sonining barqaror o‘sishi kuzatildi. Yuqorida qayd etilganidek, pandemiya tufayli bu borada ham pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022-yildan yana asta-sekin tiklanish yo‘liga o‘tdi. O‘zbekistonda ham shunday manzarani kuzatish mumkin. Xususan, 2015-yilda yurtimizga qariyb 1,9 million turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018-yildan bu borada keskin o‘sish ko‘zga tashlana boshladi. Misol uchun, 2019-yilda yurtimizga salkam 6,7 million sayyoh tashrif buyurdi. Pandemiya davrida bu raqam 1,5 millionga tushib ketgan edi. O‘tgan yili O‘zbekistonga safar qilgan turistlar soni 6,75 mln. nafarga yetgan.

Ko‘rinib turibdiki, har ikki mamlakatda ham turizm sohasi koronavirus pandemiyasidan sezilarli darajada aziyat chekkan, biroq tez orada vaziyat izga tushib, shiddatli tiklanish jarayoni yuz bergan. Ushbu misollar mamlakatimizda turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun strategiyalarni moslashtirish va infratuzilmani yaxshilash muhimligidan dalolat beradi.

Hozirgi paytda Janubiy Koreya O‘zbekistonga nisbatan bir necha barobar ko‘proq turistlarni qabul qilmoqda. Bu rivojlangan turizm infratuzilmasi, faol marketing kampaniyalari va ushbu davlatning xalqaro maydondagi sezilarli madaniy ta’siri bilan bog‘liq.

Janubiy Koreya Xitoy, Yaponiya va AQShdan yuqori daromadli, potensial sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. O‘zbekistonga sayohat qilayotgan turistlarning asosiy qismi Rossiya, Qozog‘iston va Turkiyadan bo‘lib, bu hol geografik jihatdan yaqinlik va yaqin madaniy aloqalar bilan izohlanadi.

Janubiy Koreya yalpi ichki mahsulotiga turizm sohasi (4,2 foiz) O‘zbekistondagiga (2,5 foiz) nisbatan ko‘proq hissa qo‘shadi. Janubiy Koreyada turizm sohasida 1 millionga yaqin ish o‘rni yaratilgan bo‘lsa, yurtimizda bu raqam o‘rtacha 700 mingni tashkil qiladi. Albatta, bu ham yomon natija emas. Biroq yurtimizda turizmni rivojlantirish orqali yana yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratish va ushbu sohani iqtisodiyotimizning muhim tarmog‘iga aylantirish imkoniyatlari yetarli. Zotan, O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy va madaniy resurslari orqali turizmni yanada yuksaltirish borasida ulkan salohiyatga ega. Bizning bir qancha qadimiy shaharlarimiz YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, betakror me’moriy va madaniy merosi bilan dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb etadi. Tyan-Shan tog‘lari va Qizilqum cho‘li kabi tabiiy landshaftlarda ham ekoturizm va ochiq havoda dam olishni yo‘lga qo‘yish uchun noyob imkoniyatlar mavjud.

Navro‘z bayrami va an’anaviy hunarmandchilik namunalari, folklor, xalq o‘yinlari sayyohlarni o‘ziga jalb etib, milliyligimizni dunyoga yoyishga yordam berishi mumkin. Boy va rang-barang madaniy merosimiz namunalaridan O‘zbekistonning jahoniy obro‘si va nufuzini oshirish yo‘lida foydalanish mumkin. O‘zbek musiqasi, kino va televideniyesini rivojlantirish va xalqaro maydonda targ‘ib qilish ham mamlakatga bo‘lgan qiziqishni sezilarli darajada oshirishi shubhasiz. Xalqaro madaniy festival va tadbirlarni tashkil etish ham bu borada samarali natijalar berishi tabiiy. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar Instagram, YouTube, Facebook kabi xalqaro platformalarda ham yurtimizni faol targ‘ib qilish lozim.

O‘zbekiston transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga investitsiya kiritishni yanada faollashtirish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro aeroportlarni takomillashtirish, yangi havo yo‘nalishlarini yaratish va ichki transport tarmog‘i, jumladan, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarini rivojlantirish sayyohlarning mamlakatimiz bo‘ylab sayohatini yanada tez va qulay qiladi.

Yuqori sifatli xizmat va qulayliklarga ega turistik hududlarni yaratish, shuningdek, mehmonxona infratuzilmasini yaxshilash yurtimizga sayyohlarni jalb qilish va ularni ko‘proq muddat ushlab turishga yordam beradi. Turli darajadagi xizmat ko‘rsatish sifatiga ega zamonaviy mehmonxonalar, hostellar va mehmon uylarining rivojlanishi turli toifaga mansub sayyohlar segmenti uchun qulay takliflar hajmini oshiradi.

Mamlakatimizdagi diqqatga sazovor joylar, marshrutlar, transport va xizmatlar haqida ma’lumot beruvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish sayyohlik tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bunday ilovalar O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilishni yanada qulaylashtiradi. Ular ma’lumot beruvchi interaktiv xaritalar, gidlar va bronlash xizmatlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan gidlar, mehmonxona va restoran menejerlari uchun malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yuqori darajadagi professionallik va xizmat ko‘rsatish sifatini ta’minlaydi. Sifatli xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlikka e’tibor berish turizm industriyasi muvaffaqiyatining asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Turizm xodimlarining mijozlarga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan treninglar va seminarlar tashkil etishga ham birlamchi ahamiyat qaratish lozim bo‘ladi.

Umuman, Janubiy Koreyada sog‘lom marketing strategiyalari, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsiyalar va kadrlar tayyorlash borasida erishilgan natijalarni inobatga olgan holda, yurtimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

– madaniy unsurlarni marketingga joriy etish, reklama uchun ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro platformalardan unumli foydalanish;

– transport tizimidan foydalanish imkoniyatini yaxshilash, qulay turistik hududlarni yaratish va ularda mehmonxona infratuzilmasini yaxshilash;

– sayyohlar uchun mobil ilovalarni ishlab chiqish, VR texnologiyalaridan samarali foydalanish;

– turizm sohasi xodimlarini tayyorlash, ularning xizmat ko‘rsatish va mehmondo‘stlik darajasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, marketing, infratuzilma, innovatsiyalar va ta’limni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv O‘zbekistonda turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng asosiy kalitidir. Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun davlatning yordami va yirik hajmdagi investitsiyalar talab qilinadi. Hukumat investorlarni moliyaviy rag‘batlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mamlakatni xalqaro miqyosda tanitishni o‘z ichiga olgan turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi zarur deb o‘ylayman.

Albatta, turizmni rivojlantirish bo‘yicha Koreya tajribasini o‘rganish va undan foydalanish – shunchaki o‘zgalardan nusxa ko‘chirish, degani emas. Bunda har ikki davlatga xos jihatlar, an’ana va mentalitetni hisobga olish muhimdir. O‘zbekistonda eng rivojlanayotgan segmentlardan biri tarixiy-madaniy va ziyorat turizmidir. Hukumat tashabbuslari va xususiy investitsiyalar birgalikda O‘zbekistonni mashhur sayyohlik maskaniga aylantirishi, millionlab sayyohlarni jalb qilishi va mamlakat iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Nurislom TO‘XLIYEV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori,
O‘zFA akademigi

YOSHLAR OVOZI

“Bizning ismimiz – O‘ZBEKISTONLIK!”

Bundan bir asr avval, aniqrog‘i, 1922-yilda jadid yetakchilarining tashabbusi va homiyligida 70 nafar turkistonlik talaba Germaniyaga o‘qishga yuborilgan edi. Ularning keyingi taqdiri haqida ko‘plab maqolalar, badiiy asarlar, filmlar yaratilganki, biz bu xususda ko‘p to‘xtalmoqchi emasmiz. Bugun biz ayni paytda olis nemis diyorida ta’lim olayotgan, tadqiqot va amaliy izlanishlar olib borayotgan yoshlarimiz haqida, Prezidentimiz va davlatimiz homiyligida eng ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirayotgan qalbi qaynoq yigit-qizlarning ibratli hayoti va faoliyati to‘g‘risida hikoya qilmoqchimiz. Ularning shijoat, ishonch va orzularga yo‘g‘rilgan so‘zlarini tinglarkanmiz, beixtiyor buyuk nemis shoiri Gyotening “Umid bilan suqilgan tayoq, Bir kun berar meva-yu yaproq”, degan hikmatli satrlari yodimizga tushdi.



Elbek YAXSHIYEV,
Gyottingen shahridagi temir yo‘llar nazorati kompaniyasining sifat nazoratchisi:

– Rossiyada aspiranturada o‘qib yurgan kezlarimda Germaniya temir yo‘llar tizimi, nemis ko‘priklarining mustahkamligini ta’minlaydigan texnologiyalar meni qiziqtirib qo‘ydi. O‘sha yurtga borib ishlayman, ilm o‘rganaman deb niyat qildim. Nihoyat, 2020-yilda Gyottingen shahridagi nufuzli firmada faoliyat boshladim.

Ishga kirish chog‘ida kamina bilan o‘tkazilgan ilk suhbat juda qiziq kechdi. Nemischam yaxshi emas, o‘ta olarmikinman deb rosa tayyorlangan edim. O‘shanda firma rahbari kutilmaganda futbolga qiziqishim haqida so‘radi. Muloqotning bunday boshlanishi mendagi hayajonni bosdi. Futbol – jon-u dilim, o‘zim ham bo‘sh vaqtlarimda to‘p tepib turaman. Bu mavzuda jo‘shib gapirib, ishga aloqador mavzuga o‘tganimizni sezmabman ham.

Albatta, boshida nemis mentalitetiga o‘rganishim qiyin kechdi. Ulardagi ish intizomining bir jihati menga g‘alati tuyulgan. Ya’ni, ishga borib kelaverasiz va sizdan hech kim qachon kelding, soat nechada ketyapsan, deb so‘ramaydi. Qo‘lingizga ish soatining jadvali beriladi va uni o‘zingiz to‘ldirasiz. Uni qanday to‘ldirish vijdoningizga havola. Eng qizig‘i, hech kim o‘ziga yolg‘ondan ish soati yozmaydi.

Men xizmat qiladigan “Deutsche Bahn” firmasi Germaniyaning asosiy temir yo‘l operatoriga qarashli. 2026-yilgacha topshirishim kerak bo‘lgan loyiham bor. Undan tashqari, ko‘priklar sifatini yaxshilash bo‘yicha alohida loyihani amalga oshirmoqchiman. Uni O‘zbekistondagi hamkasblarim bilan birgalikda bajarish niyatim bor.

Bu yerda ishlash, yashash davomida ko‘p narsalarni o‘rgandim. Ham kasbiy, ham hayotiy tajriba orttirdim. Nemis xalqining menga eng yoqqan xususiyati – ular sidqidildan ishlaydi, dam olishni ham to‘g‘ri tashkillashtiradi. Men ishdan bo‘sh vaqtlarimni oilam, fazandlarim bilan o‘tkazaman. Yana tashkilotimizga qarashli havaskorlar futbol jamoasi tarkibida turli musobaqalarda ishtirok etaman. Har xil millat vakillari bilan maydonga tushamiz, ular bilan tanishib, do‘stlashamiz.

Bu yerda biz O‘zbekistonning Germaniyadagi diplomatik vakolatxonasi bilan doimiy aloqadamiz. U yerda o‘tkaziladigan har bir tadbirda qatnashishga harakat qilamiz. Tadbirlarga taklif etishganida suyunamiz. Elchixona mutasaddilari tomonidan tashkil etiladigan an’anaviy til bayramlarini intiq kutamiz. Yaqinda yoshlar o‘rtasida uyushtirilgan “Zakovat” intellektual musobaqalarida qatnashdik. Xullas, elchixonamiz hammamizni birlashtirib turadi.

Hukumatimiz yoshlarga juda katta e’tibor qaratadi. Bu ayniqsa, tashqarida, ya’ni xorijda yaqqolroq ko‘rinadi. Bir gapni aytishim kerak, bizni davlatimiz doim qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Rossiyada o‘qiyotganimizda ham e’tiborda turganmiz. Hozir esa ana shu e’tibor bir necha karra ko‘paygan. Qarindoshlarim, do‘stlarim, kasbdoshlarimdan yurtimiz yoshlarining muvaffaqiyatlari va ularga yaratilgan imkoniyatlar haqida eshitish juda yoqimli.

Germaniyada ishingizga fidoyiligingiz va kasbingizning haqiqiy mutaxassisi ekaningizni namoyon etsangiz hurmat qozonasiz, qadr topasiz. Xorijga chiqqan o‘zbek o‘zini qanday tutishi uning tarbiyasiga bog‘liq. Xususan, Germaniyaga kelgan yurtdoshlarimiz o‘zlarini yaxshi tomondan namoyon qilishadi. Shuning uchun ham nemislar o‘zbeklar haqida yaxshi fikrda. Ular o‘zbek millati vakillarini samimiy, sodda va mehnatkash odamlar deb bilishadi. Menimcha, xorijdagi o‘zbek har bir xatti-harakati bilan o‘z millati haqida yaxshi tasavvur uyg‘otishga harakat qilishi kerak. Vatanimiz yoshlarining chuqur bilim olishlarini va uni hayotga tatbiq etishda sobitqadam bo‘lishlarini istayman. Olingan bilim, albatta, qo‘llanilishi kerak. Davlatni rivojlantirish ertangi kun egalari, ya’ni yoshlar qo‘lida. Shuning uchun tengdoshlarim qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar, o‘z kasbini sevsin, ishiga vijdonan yondashsin, qadr topsin va o‘z sohasiga oid nima manfaatli yangilik topsa, O‘zbekiston uchun ilinsin.

Husnora ORZIQULOVA,
Myunxen Lyudvig-Maksimilian universiteti klinikasining yuz-jarrohlik bo‘limi stomatolog shifokori:



– Talabalik davrimdayoq Germaniya meditsina sohasida dunyoda eng yetakchi davlatlardan biri ekani to‘g‘risida ko‘p eshitgandim. Shu bois menda “doyche punktlixkayt” – “puxtalik va aniqlik” rusum bo‘lgan bu diyorga borib o‘qish orzusi paydo bo‘ldi. Maqsadimga yetish uchun harakatni mustaqil tayyorlanishdan boshlab, keyinroq nemis tili kurslariga borganman. 2022-yili nihoyat ushbu mamlakatga kelishga muvaffaq bo‘ldim. Dastlabki ish kunlarim biroz qiyin kechdi. Lekin astoydil harakat qilib, hamkasblarning yordami bilan bu qiyinchiliklarni yengib o‘tdim.

Albatta, Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan biz yoshlar uchun jahon darvozalarining ochib berilgani – eng katta yutug‘imiz deb o‘ylayman. Xohlagan davlatimizda, xohlagan universitetimizda o‘qiyapmiz. Buning uchun Yurtboshimizdan har qancha minnatdor bo‘lsak arziydi.

Kelgusida magistraturani ham shu yerda davom ettirib, yuz-jag‘ jarrohligi sohasida ilmiy faoliyat olib borish niyatidaman. Eng murakkab jarrohlik ishlarini chuqur o‘rganib, O‘zbekistonga malakali shifokor bo‘lib qaytmoqchiman. Ota-onamni, o‘g‘limni va yaqinlarimni judayam sog‘inganman. Albatta, jigarlaringdan, Vataningdan uzoqda yashash oson emas. Lekin o‘zim tug‘ilgan yurt rivoji uchun ozgina bo‘lsada hissa qo‘shish imkoniyatim kengaygani menga katta kuch beryapti. Aslida bizning burchimiz shu – Vatan uchun yonib yashash! O‘zbekiston yoshlariga aytadigan gapim shuki, ular avvalo o‘z ona tilini a’lo o‘zlashtirib, keyin o‘zga tillarni ham mukammal o‘rganishsin. O‘z oldiga katta maqsadlarni qo‘yib, unga erishish uchun mehnat va harakatdan tolmasin. Shu yo‘lda ularga omad tilayman!

Behro‘z AVAZOV,
Germaniyaning Ingelhaym malaka oshirish markazi nemis tili o‘qituvchisi,
Raynland-Pfals federal o‘lkasining nemis tili imtihonlari bo‘yicha eksperti:



– Avvalo, ota-onamning rivojlangan davlatlarda tahsil olayotgan talabalarga havasi meni Yevropada o‘qishga undagan bo‘lsa kerak. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida nemis tili, tarixi va madaniyati bo‘yicha ta’lim olish asnosida Germaniyada o‘qigan buxorolik jadid bobolarimiz haqidagi ma’lumotlar bilan tanishgach, ularning izlaridan borishga qaror qildim.

Men Mayns Yohannes-Gutenberg nomidagi universitetda nemis tilini o‘qitish va turkologiya sohalarida ikkita magistrlik diplomini qo‘lga kiritdim. O‘z ona tilimni boshqalarga o‘rgatish orzusi, qolaversa, Germaniya kutubxonalaridagi qadimiy turkiy yozma manbalarni o‘rganishga bo‘lgan kuchli ishtiyoq turkolog bo‘lib yetishishimda katta rol o‘ynadi. Ayni paytda Ingelhaym malaka oshirish markazida yoshlarga dars beryapman.

Mamlakatimizning Berlindagi elchixonasi va Frankfurt-Mayn shahridagi Bosh konsulligimiz Germaniyadagi vatandoshlar bilan birlashtirib turadigan tadbirlarni tashkillashtirish va O‘zbekiston imijini yuksaltirishda talay ishlarni amalga oshiryapti. Jumladan, Mayns universitetida ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida diplomatik vakolatxona tashabbusi bilan o‘zaro ilmiy-madaniy hamkorlik munosabatlari tizimli shakllantirilgan.

Germaniyadagi hayotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘sh vaqtning bo‘lmasligida, boisi hamma narsa reja asosida. Qizig‘i, farzandlar o‘z ota-onalarining uyiga ham ular bilan kelishmasdan yoki avvaldan rejalashtirmasdan turib bora olishmaydi. Bu yerda vaqt hamma narsadan ustun turadi va nemis xalqi har bir daqiqasini o‘zbeklar nonni qadrlagandek e’zozlaydi. Nemislarning mana shu qadriyati har bir yurtdoshimga yuqishini istar edim.

Ustozimning “xorijda o‘z ismingni unut, chunki u yerda hamma seni o‘zbekistonlik deb biladi”, degan o‘giti sira esimdan chiqmaydi. Har bir harakatim o‘zbekistonliklarga nisbat berishini anglab turaman. Dunyo bo‘ylab sochilib ketgan yurtdoshlarim qalbiga ham hamisha shunday uyg‘oq hislar yor bo‘lsin.

Hasan FAZLIDDINOV,
Germaniyaning Zigen universiteti iqtisodiy siyosat bo‘yicha magistratura bosqichi talabasi:



– Men Germaniyaga bu mamlakatning iqtisodiy modeli va muvaffaqiyatli biznes strategiyalarini o‘zlashtirish uchun keldim. Uning barqaror rivojlanish va innovatsiyalarga qaratilgan yondashuvi menga katta ta’sir ko‘rsatdi. “Sozlanadigan iqtisodiyot” va “sozlanadigan bozor” kabi tushunchalar haqidagi ma’ruzalarni tinglash esa, Germaniya iqtisodiyotining o‘ziga xos aniq va ijodiy yondashuvini tushunishimga yordam berdi. Bundan tashqari, Germaniyaning barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot”-ga bo‘lgan e’tibori mening shaxsiy qarashlarim bilan hamohang edi.

Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar mening xorijda tahsil olishim va ish faoliyatimni yo‘lga qo‘yishimda katta ko‘mak berdi, O‘zbekistonda olgan ilk tajribalarim va bilimim mustahkam asos bo‘ldi. Shuningdek, hukumatimizning yoshlar uchun ishlab chiqqan dasturlari professional ko‘nikmalarimni rivojlantirdi.

Germaniyada tahsil olish orqali yurtimizning kelajagiga o‘z hissamni qo‘shishni maqsad qilganman. Iqtisodiy siyosat bo‘yicha magistratura talabasi sifatida ixtisosligim mavzusini chuqur o‘rganishga, bilimlarimni kengaytirishga harakat qilyapman. Kelajakdagi rejalarimning muhim qismi – xalqaro va professional aloqalarni mustahkamlash, butun dunyodagi hamkasblarim bilan tajriba almashib turish. Qisqacha aytganda, kasbiy faoliyatim orqali iqtisodiy siyosatdagi taraqqiyotga yordam berish, mahalliy va xalqaro miqyosda qulay iqtisodiy muhit ta’minotiga hissa qo‘shishga intilyapman. Mening amaliyot tajribam O‘zbekiston bilan mukammal hamkorlik qiladigan kompaniya bilan bog‘liq. Bu xalqaro ishlar va diplomatik munosabatlarda tajriba orttirish uchun juda muhim imkoniyatdir. Amaliyot doirasida kompaniyaning O‘zbekiston bilan loyihalari va hamkorliklari haqida ma’lumotga ega bo‘laman, bu esa mamlakatlar o‘rtasidagi biznes aloqalar qanday boshqarilishini chuqurroq tushunishimga imkon beradi.

Shaxsiyatimning ajralmas qismi bo‘lgan ona tilimdagi muloqotni qo‘msayman. Dunyoning istalgan nuqtasida o‘zbekligimni saqlab qolish men uchun muhim.

Vatanimiz yoshlariga tilagim shu: o‘zingizga ishoning, o‘zingizni kashf etishga intiling!

Mardona ZUHRIDDINOVA,
Hannover stomatologlar tayyorlash professional akademiyasi talabasi:



– Maktabda o‘qib yurgan paytlarimda chet elda tahsil olish orzusida ko‘plab xorijiy universitetlarga hujjat topshirganman. 10-sinfligimda Malayziyadagi universitetlardan biriga sakson foizlik grantni qo‘lga kiritdim. Bu o‘zimga bo‘lgan ishonchni kuchaytirdi. Nemis tilini ishtiyoq bilan o‘rgana boshladim. Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliy ta’lim olish imkoniyati ko‘proq. Darvoqe, nemis xalqiga xos temir intizom, bir so‘zlilik xislatlari ham aynan ta’lim dargohlarida shakllanadi. Masalan, vaqtning naqadar muhim ekanligini shu yerga kelib yanada yaxshi tushunib yetyapman.

Menga O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan juda ham katta yordam berildi. Institutda o‘qib yurgan paytlarim chet tillarini o‘rganish va turli xil sport to‘garaklariga qatnashish, shuningdek, “Yosh kitobxon” loyihasida o‘zimni sinab ko‘rishim uchun menga imkoniyat eshiklari ochildi.

Mutaxassisligim bo‘yicha tish shifokori bo‘laman. O‘qishni tamomlab, O‘zbekistonda o‘z mutaxassisligim bo‘yicha klinika ochish niyatim bor. Chet davlatlar bilan hamkorlikda ishlash orqali mamlakatimizning rivojlanishiga, insonlarning sog‘lom bo‘lishiga hissa qo‘shish maqsadidaman.

O‘zbekistonning Germaniyadagi elchixonasi mutasaddilari biz bilan tez-tez suhbat uyushtirishadi, o‘qish va ishlarimiz bilan qiziqishadi, foydali maslahatlar berib, bizni doimo qo‘llab-quvvatlashadi. Albatta, musofirlikda qiyinchiliklar yo‘q emas. Axir, oliy maqsadlarga osonlik bilan erishib bo‘lmaydi. Men Germaniyaga o‘zim bilan butun O‘zbekistonni olib kelgandayman. Chunki meni tanigan odam mening millatimni taniydi. Bizni dunyo tanisin!

Davra suhbatini
Muhayyo PIRNAFASOVA uyushtirdi.

P.S. Davra suhbatini tashkil etishda amaliy yordam ko‘rsatgani uchun O‘zbekistonning Germaniyadagi elchixonasiga minnatdorlik bildiramiz.



2024-yil 5-iyul
№ 28(28)

Shavkat MIRZIYOYEV:

“Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatan adabiyotiga Jizzax diyoridan qo‘yayotgan qadamlari qutlug‘ bo‘lsin!”

ZOMIN TOG‘LARIDA





**Sirojiddin SAYYID,
Yozuvchilar uyushmasi raisi,
O‘zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a’zosi:**

– Qadrli yoshlar, aziz o‘g‘il-qizlarimiz! Muhtaram Yurtboshimiz siz-u biz ijodkorlardan judayam baland ijodiy parvozlar kutyaptilar. Katta yig‘ilishlarda bugun menga Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar yetishmayapti, deya bot-bot ta’kidlaydilar. Demakki, Prezidentimiz nazarda tutayotgan bu bo‘shliq o‘rnini siz yoshlar to‘ldirishingiz zarur. Zomin seminari, yosh ijodkorlarning ilk kitoblari chop etilib, taqdimotlari o‘tkazilishi sizlarning kelgusidagi katta maqsadlaringizga birinchi pillapoya vazifasini o‘taydi. Bu yo‘lda qoqilmay, yorug‘ manzil sari dadil qadam bosavering.



**Mehribon ABDURAHMONOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Jizzax viloyat bo‘limi rahbari:**

– Seminarimiz ilk bor 1997-yili Yurtboshimiz Jizzax viloyati hokimi lavozimida faoliyat olib borayotgan kezlarda tashkil etilgan. Gapning sirasini aytganda, o‘sha davr bozor kayfiyati hukm sura boshlagan, ko‘plar o‘zini savdoga urgan, adabiyot esa bir chetga surilib, adiblar o‘zlarini jamiyatning o‘gay bolasidek keraksiz his qila boshlagan damlar edi. Ana shu tushkunlik muhiti katta ijodkorlarimizni ham o‘z domiga tortgan, “adabiyotning ertasi nima bo‘ladi?” degan savol kun tartibiga chiqqandi. “Zomin seminari tom ma’noda adabiyotni oyoqqa turg‘izgan, dalda bo‘lgan, umid bag‘ishlagan voqelik bo‘ldi”, deya e’tirof etgandi O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov.

Bugun adabiyot maydonida o‘z so‘ziga ega ijodkorlarning aksariyati aynan ana shu adabiy anjumanda kashf etilgan. Oradan yillar o‘tib, mazkur seminar “Zomin maktabi” deb nom qozondiki, bu baho ijodkor yoshlar uchun o‘ta muhim bo‘lgan – bevosita muloqot, hayotiy tajriba asosiga qurilgan ustoz-shogird an’anasi shakllanganligidan darak beradi.

Afsuski, ayrim sabablar bilan orada bir necha yil Zomin seminari o‘tkazilmadi. Muhtaram Prezidentimizning qo‘llab-quvvatlashi bilan 2017-yilda mazkur adabiyot bayramining yana qaytadan tashkillashtirilgani mamlakatimiz ijod ahlining quvonchiga sabab bo‘ldi. Har qanday ulug‘vor ish o‘zining davomiyligi bilan xayrlidir.



**Isajon SULTON,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi:**

– Har yili bo‘lib o‘tadigan an’anaviy Zomin seminari yurtimiz ijodkor yoshlarini qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy “platforma”ga aylanganiga ancha bo‘ldi.

Shuni faxr bilan e’tirof etsa arziydi: dunyo o‘lkalarida ijod va san’atni qo‘llab-quvvatlaydigan turli-tuman tadbirlar bor, ammo mamlakat yoshlari orasidan badiiy ijodga eng iqtidorlilarini saralab, ustozlar saboqlari o‘tiladigan bunday anjuman olamda yagona bo‘lsa, ajabmas. Seminar yoshlarga o‘z iste’dodini namoyon qilish imkonini beradigan yangi makon, o‘zaro muloqotning qulay shakli, yangi ufqlarga intilishning o‘ziga xos “start maydonchasi”dir. Bu yilgi seminarda respublikamizdagi ijod maktablari o‘quvchilari ham qatnashayotgani ijodkor yoshlarga e’tibor ko‘lami yanada ortayotganining yorqin isboti.

Zomin seminarini avlodlar uchrashuvi deb atasa ham bo‘ladi. Chunki yosh ijodkorlar ustozlardan badiiy san’atning o‘ziga xos sirlarini o‘rganishsa, ayni paytda katta avlod ijodkorlari yetishib kelayotgan yosh avlodning o‘y-xayollari, intilishlari, orzu va umidlari, tushuncha tarzi bilan bevosita tanishib olishadi, boshqacha aytganda, kelajak bilan yuzlashishadi.

O‘tgan davr mobaynida Zomin seminari qatnashchilarining bir nechta avlodi shakllanib ulgurdi. Uning ilk qaldirg‘ochlari bugungi jamiyatimizning faol a’zolari, ko‘zga ko‘ringan ijodkorlardir.

Mamlakatimizda shitob bilan “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” shiori ostida ko‘lamli yangilanishlar yuz bermoqda. Bu qutlug‘ jarayon yangicha fikrlaydigan, sog‘lom tafakkurli, vatanparvar va fidoyi yoshlarni yetishtirib chiqarmoqda. Ayni kunlarda an’anaviy va mumtoz ushbu anjumanning navbatdagi “nafis majlislar”i bo‘lib o‘tmoqda. Seminar qatnashchilariga el-yurtga xizmat qilishday sharafli va mas’uliyatli ishlarida omad va zafarlar yor bo‘lishini tilaymiz.



**Suvon MELI,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
filologiya fanlari doktori:**

– “Kelajak – yoshlar qo‘lida” degan gap galdagi shior ham, tantanavor gap ham emas. Bu – aniq fakt.

Mavjud olamning muqarrar qonuniyatiga ko‘ra vaqt beto‘xtov o‘taveradi, eski avlod o‘rniga yangisi kelaveradi, bu abadiy jarayon. Yangi kelgan va kelayotgan avlod eskisidan aqlli, bilimli va jur’atli bo‘lishi shart. Aks holda xalqning, davlatning va mamlakatning kelajagi xavf ostida qoladi. Chunki hozirgi globallashgan dunyoda kechayotgan shafqatsiz raqobatga chidash, unda g‘olib chiqa olish uchun matonatli va ma’naviyatli avlod zarurdir.

Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu – yoshlarni har tomonlama malakali va ma’naviyati yuksak qilib tarbiyalash, ularning bilim olishi va samarali faoliyat yuritishi uchun davlat hamma shart-sharoitni yaratib beradi, deganidir. Buni yoshlarga berilayotgan o‘ziga xos qarz deb tushunmoq lozim. Qarz esa to‘lovi bilan go‘zaldir. Yoshlarimiz bunday g‘amxo‘rlikka munosib bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Zomin seminari ham shunday g‘amxo‘rlik namunasi bo‘lib, o‘zbek adabiyotining kelajak nihollarini tarbiyalash, ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, badiiy adabiyotning buyuk missiyasini uqtirish maqsadida o‘tkaziladigan go‘zal va muntazam tadbirlardan biridir. Ma’lumki, seminar ijodkor yoshlarni topish, eng munosiblarini tanlash borasida Yozuvchilar uyushmasi olib borgan ishlarning yakuniy bosqichi bo‘lib, unda ishtirok etishning o‘ziyoq ham baxt, ham mas’uliyatdir.

Men bunda ishtirokchilar, ular siymosida butun ijodkor yoshlarning mas’uliyati haqida gapirmoqdaman. Bugun hayot, Vatanimiz O‘zbekiston yangilanayotgani kabi badiiy adabiyot ham yangilanmoqda, jahonning hozirgi vaziyatiga mos badiiy adabiyot zarurati paydo bo‘lmoqda. Sir emas, hozirgi kunda jahonda destruktiv, buzg‘unchi kuchlarning xuruji misli sizlik darajada avj oldi. Buzg‘unchilik birinchi navbatda yoshlarga, ularning axloqi va ma’naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan. Bunday xurujga qarshi kurashmoq uchun toza qalb, yuksak ma’naviyat sohiblari yarata oladigan sog‘lom adabiyot darkor. Va bu adabiyotga baho beradigan, o‘rni kelganda yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan adabiy tanqid zarur.

Adabiyotshunos bo‘lganim bois, adabiy tanqid, unda yoshlarning ishtiroki haqida biroz so‘zlasam. Yosh shoirlar, adiblar, hatto dramaturglarimiz bor, yo‘q emas. Lekin faloncha deb tilga olishga munosib yosh munaqqidimiz yo‘q. Bunday taqchillikni ko‘rgandan so‘ng munaqqidlik noyob kasb va iqtidor ekaniga qat’iy ishonch hosil qildim. Ayni yoshlardan tarkib topgan faol adabiy tanqidsiz adabiyot taraqqiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoshlar tomonidan yaratilgan adabiy mahsulotga yosh munaqqidlar baho bersagina, ya’ni baho bera oladigan darajada bo‘lsagina, chinakam yangi adabiyot mavjudligiga ishonish mumkin.

Zomin seminari boshqa janr yo‘nalishlari qatorida yangi, yosh, iqtidorli munaqqidlarni kashf qiladi deb umid qilamiz.



**Botirjon ERGASHEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari:**

– Adabiyotga muhabbatli yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizga yaxshi ma’lumki, har yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Jizzax viloyati hokimligi, “Do‘stlar klubi” doirasida aksiyadorlik tijorat Xalq banki hamda bir qator vazirlik va idoralar hamkorligida Respublika yosh ijodkorlarining an’anaviy Zomin seminari o‘tkazib kelinadi.

Mamlakatimizda adabiyotga, xususan, yosh ijodkorlarga bo‘layotgan e’tiborlarning samarasi o‘laroq, yildan yilga yoshlarning badiiy ijodga qiziqishi oshib, seminarning qamrovi ham kengayib bormoqda. Talab va istaklarga muvofiq anjuman ahamiyatini yanada oshirish maqsadida tashkiliy masalalarda ham yondashuv tubdan o‘zgarmoqda. Prezidentimiz qaroriga binoan bu yilgi anjumanda yurtimizdagi atoqli adiblar nomi bilan ataluvchi ijod maktablarining har biridan besh nafardan iqtidorli o‘quvchilar hamda bir nafardan kuzatuvchi ustozlar ishtiroki ham ko‘zda tutilgan. Shu bois, hududiy bosqichlarda qatnashib, Zomin seminarining Respublika bosqichiga yo‘llanma olgan sakson olti nafar yoshlarga ijod maktablarining ijodkor o‘quvchilari ham qo‘shildi.

Anjumanning bu galgi rasmiy qismi ham odatdagiday poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonidan, buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo‘yish bilan boshlandi. Bir guruh ustoz adiblar, adabiyotshunos olimlar hamda yuz nafardan ziyod yoshlar o‘zbek adabiyoti pirining g‘oyibona duolari bilan Zominga yo‘l olishdi. U yog‘i katta taassurotlarga boy, hech qachon unutilmaydigan, uch kuni uch asrga arzirli O‘riklisoyning muazzam bag‘ri.

Anjumanda nazm, nasr, publitsistika, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, dramaturgiya va adabiy tanqid yo‘nalishlarida mashg‘ulotlar bo‘lib o‘tdi. O‘zbek adabiyotining zabardast vakillari O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov, O‘zbekiston xalq shoirlari Sirojiddin Sayyid, Usmon Azim, Mahmud Toir, Kengesbay Karimov, adabiyotshunos olimlar Qozoqboy Yo‘ldoshev, Suvon Meli, Nurboy Jabborov, shoirlar Nikolay Ilin, Eshqobil Shukur, Kavsar Turdiyeva, Aziz Said kabi ustozlar uch kun mobaynida yoshlarning ijodi bilan yaqindan tanishib, kerakli maslahatlar berishdi. An’anaga ko‘ra, ustozlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan iqtidorli yoshlarning ijodiy ishlari “Birinchi kitobim” loyihasida bir necha ming nusxada chop etiladi.

Yakunda yoshlarga anjumandagi ishtiroklarini tasdiqlovchi sertifikat, seminarning maxsus statuetkasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda hamkorlarning qimmatbaho esdalik sovg‘alari topshirildi.

ILHOM JILVASI





BITTA VATAN, BITTA XALQ

Ho‘qand yondi!
Yog‘ildi ofat,
Yonib bitdi ulug‘ mamlakat.
E voh!
Qarshi ummatga ummat
Shaylandilar qonli hamlaga.
Samovotning kipriklari nam,
Ko‘zlarida nelar qalqidi?!
Buxoro ham, ko‘hna Ho‘qand ham
Bitta Vatan, bitta xalq edi!
Yiqitdilar ona yurt tug‘in,
Ko‘ngillarni tark etdi shodlik.
Nodira – bu abadiy yig‘i,
Nodira – bu ma’yus ozodlik!

Temurlarni tug‘gan hur xalqim,
Qani kim bor, qalqon bo‘lishga?
Qani kim bor, xoinga qalqib
Millat deya yonib o‘lishga?
Siz yiqilmang, so‘nmasin uchqun
Hukmrondir toki tahlika.
Ho‘qand uchun,
Or-nomus uchun,
Vatan uchun yashang, malikam!
Eliga yov, shaytonga sherik,
O‘sha qassob, o‘sha kazzobi.
Nodira – bu qo‘ldan ketgan erk,
Nodira – bu qullik azobi!

Jonajonim!
Yur endi nari
Vatanfurush kas – “mullo”lardan.
Yangi asr Nodiralarin
Bugun asra Nasrullolardan!
Shunda baland hilpirar tug‘ing,
Ko‘ngillarga qaytadi shodlik.
Nodira – bu abadiy yig‘i,
Nodira – bu ma’yus ozodlik!

Nilufar ERGASHEVA,
Zulfiya mukofoti sovrindori,
Farg‘ona viloyati



BIR FINJON QAHVA

Kel, bugun, sevgilim, qolaylik yolg‘iz,
Sog‘inchga termilib, og‘rib ketdi jon.
Qahva olib keldim,
Endi ikkimiz
Qahva ichamizmi bir-ikki finjon?

Go‘yoki xazina topgan sayyohdek,
Termilib turaman kiprik qoqmasdan.
Sen esa uyalib boshingni egib,
Ko‘zingni olasan menga boqmasdan.

Yanoqlar har kecha ko‘zdan yosh totdi,
Ashkingdek yurakdan yot bo‘lmaydi u.
Qahva sevgi kabi shirin bo‘ladi,
Ammo sevgi kabi mast qilmaydi u.

Kel, bugun do‘stlardek suhbat quraylik,
Go‘yo sevmaganman seni hech qachon.
Qasamlar ichmasdan
Qahva ichaylik,
Ko‘p emas,
bor-yo‘g‘i
bir-ikki finjon.

BONG

Quyosh ko‘kdan bo‘ldi badarg‘a,
Bulutlarga yashirindi oy.
Tun. Zaminda bari odamlar,
Mudroq bosib qoldi hoynahoy.

Chor tarafda jimjitlik, go‘yo
Pistirmada tutilgan sukut.
Behalovat uvlaydi shamol,
Kuzgi bargday titraydi vujud.

Bu tunda bir xavf-u xatar bor,
Toshayotir qaynoq sutday ong.
Insoniyatni uyg‘oting, hayhot,
Bong uringlar!
Bong uringlar!
Bong…

Yer-u ko‘kni larzaga soling,
Tong uyg‘onsin o‘tli sadodan.
E voh, qanday mudramoq mumkin
Cho‘g‘ ustida turgan dunyoda?!

Farrux AMIROV,
Jizzax viloyati



UMID

Umr osmonida yarim oylarning
Vaqtlar o‘tib yana to‘lmog‘i bordir.
Ko‘ngil gulzorida g‘ussa-yu g‘amning
Gullari xazonlab, so‘lmog‘i bordir.

Joningni qiynagan har og‘riq, ozor
Shifoga aylanib qolmog‘i bordir.
Xoh tildan, xoh dildan kechgan duo bor –
Go‘zal tarzda “nasib” bo‘lmog‘i bordir.

Qaro tun zulmati so‘ngida zotan,
Tongning nasimlari yelmog‘i bordir.
Va bir kun qahraton qishlar ortidan
Gulgun bahorlarning kelmog‘i bordir...

Umidjon SAYFULLAYEV,
Toshkent viloyati



TAFOVUT

Kimga qor yoqadi, kimga saraton,
Yana kimga xazon fasli yo bahor.
Dunyo yaraldiki, ming turfa inson,
Har biri bir olam, fe’li betakror.

Har birin amali, zaboni bo‘lak,
Turfa maqsad sari tashlaydi qadam.
Kimningdir qismati kimgadir o‘rnak,
Kimningdir loyiga toyar yot odam.

Har kim o‘z-o‘zicha sevar Vatanni:
Kimdir sevgisini qiladi doston.
Allakim yurtiga payvandlab jonni,
Ko‘ngli yanglig‘ uni etadi bo‘ston.
Kimga qor yoqadi, kimga saraton...

Mahzuna HABIBOVA,
Buxoro viloyati

HIKOYA

O‘n olti yillik QARZ



Umida RAHMONOVA
Buxoro viloyati

Tong...

U befarq edi. Atrofidagi tanish-notanishlarning g‘ala-g‘ovuri ham qulog‘iga kirmas edi. Hamma baqirib yig‘lardi. U esa bir tomchi ham ko‘z yosh to‘kmadi. Nima uchun, kim uchun yig‘lasin? Axir, shu odam emasmidi ularning bor-yo‘g‘ini shayton sharbatiga almashgan? Shu inson emasmidi undan bolaligini tortib olgan, shirin damlarini kul qilgan? Shu inson emasmidi farishta onasiga yigirma yil zahar-zaqqum yuttirib, qirqqa to‘lmasidan go‘rga tiqqan?! O‘n olti ko‘klamni qarshilaguncha ne kunlarni ko‘rmadi bu sho‘rlikning boshi. Izg‘irin qishda tomdan tomchilagan tinimsiz chakkiga ham, qarzini so‘rab chiqqan qo‘shnilarning zardasiga ham, tengdoshlarining kamsitishlari-yu, qarindoshlarning ta’namalomatlariga ham chidab keldi. O‘shanda o‘n yoshda edi. Shu yoshida u sochiga oq oralamay olamdan ko‘z yumgan volidasining o‘limiga ham chidadi... Chidayverdi! Axiyri, u hissiz bo‘lib qoldi. Bir zumda o‘n olti yillik umri ko‘z oldidan yoz yomg‘iridek yog‘ib o‘tdi. Atrofidagi odamlar hovlini boshlariga ko‘tarib, birdan faryod solishdi. Uylarida qayoqdan paydo bo‘ldi shuncha odam? Shuncha qarindoshlari bormidi ularning? Tirigida akasidan jirkangan “mehribon” singillar dod solib yig‘lardi. Nega jigarini tirigida yo‘qlab kelishmadi bu soxta qadrdonlar? Nega uni vaqtida yo‘lga solishmadi? Mittigina jiyanlarini-chi, nega sochlarini silashmadi, erkalashmadi hech?! Birdan ongiga o‘qdek kelib qadalgan fikr xayollarini chilparchin etdi. U hayotdagi so‘nggi yaqinidan, suyanolmasa-da, asli o‘zi jondan suygan tog‘idan ajralganini his etdi!

Tobut yerdan ko‘tarildi... Uning olti yildan beri yoshlanmagan qaroqlaridan yanoqlariga yosh tomchiladi. Biroq u faryod solmadi. Ko‘hna olamning azaliy, og‘ir sukunatini buzgisi kelmagandir balki. Orqa eshikdan chiqdi-yu, uning eng qadrdon kishisi tobutini yelkalab borayotgan insonlar ortidan asta ergashdi. Bolalikdagi singari entikib-entikib borardi u... Tobutni ko‘k peshtoqli eski masjid hovlisiga kiritishgach, yerga qo‘yishdi. U kuz shamolida to‘zg‘igan taqimini o‘pib turguvchi qop-qora mayin sochlari orasidan hovliga boqardi. Boshiga oppoq salla o‘ragan, ellik yoshlar chamasidagi imom-xatib og‘ir qadam bosib keldi. Janoza duosini boshlashdan oldin an’anaga ko‘ra xalqdan so‘radi: “Marhumning kimdandir qarzi bor edimi?” Xalq jim edi. Balkim tirigida uzolmagan qarzlarini jonsiz marhumdan so‘rashga or qilishgandir. Imom taomilga ko‘ra vazmin ohangda yana ikki marotaba savolni takrorladi. Shunda chinorlar orasidan vaziyatni unsiz kuzatib turgan bir juft ko‘z odamlar orasiga otilib chiqdi: “Mendan qarzi bor edi. Otamning mendan o‘n olti yil qarzi bor. O‘n olti yillik mehr qarzi bor otamning!”

OQ AKATSIYA



Akatsiya gullaganida
Ko‘ksim to‘lar nafis havoga,
Akatsiya gullaganida
Ruhim ucha boshlar samoga.

Akatsiya gullaganida
Umrim tag‘in totli tuyular,
Akatsiya gullaganida
Ko‘zlarimdan sevinch quyilar.

Akatsiya gullaganida
Unutgayman hamma narsani.
Akatsiya gullaganida
Eslab qolgum negadir sani!

Muslim PIRMUHAMMAD,
Navoiy viloyati

NAY BILAN SUHBAT



Tandirda non isi, ko‘ngilda viqor,
Bo‘g‘zimda chalmoqda nay o‘z kuyini.
Til bilan dil ayro, o‘rtada devor,
Meni bezor qildi yurak o‘yini.

Nay deydi: “Sirlashgin men bilan, ey qiz,
Ko‘zlarim yo‘lingga mushtoq, intizor.
Iskandar sirini ochganman hargiz,
Ammo endi bildim, ko‘ngil do‘stga zor”.

Yo‘lladim men horg‘in javobim unga:
“Sirlarni gullashdan bo‘lsang tolmagan,
Men shirin sirimni aytganman tunga,
Senga aytadigan sirim qolmagan”.

Shamsiqamar SUYUNOVA,
Surxondaryo viloyati

Suratlar muallifi Ahmad TO‘RA.

BEDOR O‘Y

Qismati o‘zidan og‘ir kitoblar

Har tirik jon kabi dil siyohi bilan yozilgan kitoblarning ham quvonchli-yu ayanchli taqdiri bo‘ladi. Kitobxonning sirdosh va dildoshi, ko‘ngil mulki maqomiga ko‘tarilgan asarlar asrlardan asrlarga o‘tib yashaydi, necha-necha avlodlar qalbini ilm nuri bilan yoritadi. Yana shunday asarlar bo‘ladiki, ular zamiridagi chin haqiqat adolat mash’ali yanglig‘ porlab, zolimlar, bosqinchilar, firibgar-u fitnakorlarning ko‘ngliga qo‘rquv soladi.

Kitobshunos, adab ilmiga doir ko‘plab asarlar muallifi ibn an-Nadiymning xotirlashicha, xalifa Ma’mun bir urushda Rim podshohini mag‘lub etgach, o‘zaro sulhga ko‘ra, undan o‘lpon o‘rniga bag‘dodlik olimlarga xazinasidagi nodir kitoblarni tarjima qilish uchun ruxsat berishini talab qilgan.

Fotimiy xalifalarning mashhur kutubxonalari mamluklar tajovuzi paytida yo‘q qilingan. Muarrixlar “Johil olomon nodir kitoblarga o‘t qo‘yib, ularning jildidan kiyishga poyabzal yasab oldilar”, deya yozishgan.

Bosqinchilar Bag‘dodni vayron qilganlarida bu yerdagi mashhur kutubxonalar tamomila yo‘q qilingan. “Vahshiylar qo‘llariga ilingan barcha kitoblarni daryoga uloqtirishgan, suvga tashlangan kitoblar hisobiga daryo suvlari qirg‘oqlaridan toshgan, shu darajadaki, otliq kishi daryoning u sohilidan bu sohiliga bemalol o‘ta olgan, kitoblarning rangi hisobiga suv bir necha oy tim-qora rangga bo‘yalgan”.

Salib yurishlari davrida Tripolida uch million kitob yo‘q qilingan. Musulmon Andalusiyasiga uyushtirilgan bosqinda G‘arnota maydonida bir milliondan ortiq kitob shafqatsizlarcha yoqib yuborilgan. Nobel mukofoti sohibi, fizik olim Pyer Kyuri bu mash’um johillik haqida shunday yozadi: “Andalusiyadan bizga bor-yo‘g‘i 30 ta kitob qoldi, xolos. Shu kitoblarni o‘qib, atomni parchalashga erishdik. Agar biz ana o‘sha buyuk islom sivilizatsiyasiga tegishli kitoblarni yoqib yubormay, saqlab qolganimizda nima bo‘lardi − biz bugun fazodagi galaktikalar orasida sayr qilib yurgan bo‘lardik”.

Asar yozish rejasi qamoqxonada tug‘ilgan mashhur kitoblar orasida Servantesning “Don Kixot”, Jon Banyanning “Avliyoning sayohati”, Oskar Uayldning “Qamoqdagi istig‘for”, Nikkolo Makiavellining “Hukmdor” asarlari bor.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Mirzakalon Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha” romani ham qamoqxonada yozilgan. Mahbus Ismoilov kunlik yuk tashish rejasini ortig‘i bilan bajargani, tinimsiz ishlagani uchun unga dastlab kuniga ikki varaq, so‘ng uch, to‘rt varaq qog‘oz berilgan. Nazoratchilar o‘zbekistonlik mahbus qog‘ozga nimalarni yozayotganini kuzatib turishgan.

Romanning so‘nggi bobiga kelganida Ismoilovning qamoq muddati tugab qoladi. Yozuvchining qamoqxona rahbarlariga yozgan arizasiga Moskvadan ruxsat kelgach, Mirzakalon kamerada “istisno tariqasida” yana yigirma kun yashab, asarni yozib tugatadi.

Yaqin o‘tmishda yozilgan ba’zi kitoblarda Toshkentning so‘nggi qozikaloni Hakimxo‘ja eshon Norxo‘ja eshon o‘g‘li haqida asosan salbiy fikrlar bor edi. Bu holatga ustoz Sharif Yusupovning “Tarix ummoni sirlari” kitobida aniqlik kiritilgan. Muallif shunday yozadi: “Emishki, Toshkentga Chernyayev qo‘shini hujum qilgan 1865-yilning yozida qozikalon o‘zi istiqomat qilgan Sebzor dahasi yigitlarini bosqinchilarga qarshi kurashga boshlagan, kuchi yetmagach, o‘z odamlari bilan qochib qolgan. Go‘yo o‘z mansabini saqlab qolish ilinjida shahar darvozasini bosqinchilarga ochib bergan ekan va hokazolar... Aslida voqea bunday bo‘lgan. Toshkent shahri qamalda qolgach, bir yarim oy mobaynida ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan azoblardan qirilib bitishga mahkum etilgan aholi Abulqosimxon eshon, Solihbek oxund, Hakimxo‘ja qozikalon singari pokdomon zotlarga iltijo qilib, dushman bilan murosa yo‘lini topishni so‘raydi. Shu tariqa so‘nggi chora sifatida taslim bo‘lish haqida Chernyayev bilan bitim tuziladi. Bu to‘g‘rida ishonchli manbalarda yozib qoldirilgan. Ana shu voqealardan keyin Hakimxo‘ja qozikalon Turkiston gubernatori Romanovskiy ishtirok etgan katta yig‘ilishda bu hukmdorning dag‘dag‘asiga javoban, dilidagi gapni dangal aytadi: “Hammamizni yaratgan Haq taolo bor. Uning amri har bir inson uchun muqaddasdir, binobarin, sizning amringizdan ham yuqori turadi. Agar Haq taolo meni o‘z panohida asrasa, faqat siz emas, balki sizdan yuqorida turganlar ham hech narsa qila olmaysizlar. Muhtaram janob, siz meni qo‘rqitish bilan shariat yo‘lidan toydirishga majbur qilaman deb o‘ylay ko‘rmang!”

Bu jasoratli gap imperator saroyigacha yetib borib, katta shov-shuvga sabab bo‘ladi. Shundan so‘ng yirik hukmdorlar orasida “Turkistonda Xudodan boshqa hech kimdan qo‘rqmaydigan jasoratli yagona odam bor, u − Hakimxo‘ja qozikalondir”, degan ovoza tarqaladi...”



Abdulla Qodiriyning uch hukmdorni maftun etgan Xonposhsha haqidagi kitobi yozib tugatilmagan. Tadqiqotlarda aytilishicha, adib mavzuni o‘rganish uchun bir necha bor Marg‘ilonda bo‘lgan, Xudoyorxon zo‘rlik bilan uylanib olgan Roziyabegim bilan uchrashgan, uning ayanchli taqdiri bilan qiziqqan. Qamoqqa olinganida NKVD tintuvchilari adib bilan birga romanning dastlabki boblari bitilgan varaqlarni ham “veshdok” – jinoyatni tasdiqlovchi hujjat sifatida olib ketishgan. Xotiralarga ko‘ra, hibsxona nazoratchilari nos chekkanlarida, tufdon sifatida shu varaqlardan foydalanishgan. Milliy adabiyotimiz yana bir noyob asarni yo‘qotgan.

Ismoil G‘asprali asaridan o‘qiganim: “Abu Ja’far Yunon hukmdori bilan inoq bo‘lib, Afinadan beadoq kitoblar oldiradi. Ma’mun davrida Yahyo ibn Xolid Barmakiy Ptolomeyning “Majistiy” asarini tarjima qiladi. Sanad bin Ali va Xolid bin Abdumalik astronomiya bo‘yicha yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritadilar. Yer sharining uzunlik va kenglik darajalari o‘lchab chiqiladi. Abbos bin Sayyid Jo‘shariy kabi mashhur olimlar yunonlarning astronomiyaga oid asarlaridagi ko‘plab xatoliklarni aniqlaydilar, quyosh dog‘lari, oy-kun tutilishi, dumli yulduzlar borasida bir qancha kashfiyotlar qiladilar. Yevropa olimlari handasa (geometriya) ilmini xuroson-lik Abulvafoning hijriy beshinchi asr boshida tuzgan “Az-ziji Shomil” va “Majistiy”sidan o‘rgandi...”

Mashhur golland vrachi German Burxavening “Tibbiyot san’atining yagona va teran siri” nomli kitobi muallif o‘limidan so‘ng 1738-yili auksionda 10 ming dollarlik oltinga sotiladi. Bejirim bezalgan va g‘iloflangan kitob ochilganida uning sahifalari bo‘m-bo‘shligi ma’lum bo‘ladi. Birinchi sahifasida birgina shu yozuv bor ekan, xolos: “Boshingni sovuqda qoldirsang ham oyog‘ingni issiq tut. Shundagina sen eng zo‘r vrachlarni ham qash-shoqlikka mahkum qilasan”.

Bir kitobda o‘qiganim yodimga tushdi: “So‘qirlik shayton va jinoyatga o‘rin qolmagan baxtli koinotdir... Tabrizlik Shayx Ali ismli mashhur musavvir Jahonshoh uchun “Xusrav va Shirin” devoniga suratlar chizadi. Ish yarimlab qolganida shoh o‘zi uchun dunyoda tengsiz kitob yaratilayotganidan behad xursand bo‘ladi. Ammo ko‘nglida xavotir uyg‘onadi: Shayx Ali uning azaliy raqibi bo‘lmish Uzun Hasanga bundan-da go‘zal va bebaho kitob yaratib berishi mumkin. Bunga esa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Kitob bitishi bilan Shayx Alining ko‘zini ko‘r qilish kerak.

Shoh mulozimlariga tegishli topshiriq beradi. Bundan musavvir xabar topadi, ammo u Tabrizni tark etmaydi, hech nima bo‘lmaganday, ishini davom ettiraveradi. Kitob bitgach, shoh yovuz niyatini amalga oshiradi. Biroq bu ishidan hech qanday natija chiqmaydi. Shayx Ali Uzun Hasanga xotirasi asosida yanada go‘zal va betakror kitob tayyorlab beradi. Bundan ilhomlangan Uzun Hasan Jahonshohga qarshi qo‘shin tortadi, raqibini mag‘lub etib, uning xazinasidagi noyob kitobni qo‘lga kiritadi. Keyinroq fotih Sulton Mahmud Uzun Hasanni yengib, ikkala kitobni ham olib ketadi.

Yevropaning bir qator mamlakatlarida vaqti-vaqti bilan o‘n ikki-o‘n to‘rt yoshli o‘smirlarning qancha foizi kitob o‘qishiga aniqlik kiritib turiladi. Bu hududda kitob o‘qimaydigan bolalardan kelgusida jinoyatchilar chiqishi ehtimoli nazardan qochirilmas ekan...

O‘zbekistonda shaxsiy kutubxonasida o‘n mingdan ortiq kitoblar jamlangan yuzdan ortiq kitobsevarlar bor. Har yili yuz ming nusxadan ortiq kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilib, yosh kitobxonlarga bepul tarqatilmoqda.

Kitoblar haqidagi hikoyatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Maqolani mualliflik huquqi o‘zimga tegishli bo‘lgan bir daqiqalik film ssenariysi bilan yakunlamoqchiman: *“To‘y. Karnay-surnay sadolari. Kuyov bola jo‘ralari bilan kelinni olib ketishga kelgan. Gullar bilan yasatilgan “Mersedes”. Kelinni avaylab mashinaga o‘tqazishadi. Mashina o‘rnidan qo‘zg‘olayotganida kutilmagan voqea yuz beradi – kelin mashinadan tushib, hay-haylashlariga qaramay, uyi tomon yuguradi. “Voy sharmanda, kelin qochib ketdi”, degan g‘iybat boshlanadi. Kuyov gangiydi. Bir necha daqiqadan keyin kelin qaytadi. Qo‘lida kitob. “Bobom o‘n olti yoshga to‘lgan kunim sovg‘a qilgan edilar”, deydi u noyob hadyani bag‘riga bosgancha mashinaga o‘tirayotib”.*

Havas qilsa arzigulik taqdir.

Ahmadjon MELIBOYEV

MULOHAZA

Tarbiyaning vaqti QACHON?



Bugungi globallashuv davrida o‘zining asl qiyofasini asrab qolish, ayniqsa, yosh avlodga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berib, ularni haqiqiy shaxs sifatida voyaga yetkazish insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir xalq o‘z farzandiga odob-axloq o‘rgatish va ma’naviy barkamol inson sifatida kamolga yetkazishda, avvalo, ajdodlaridan meros bo‘lgan an’ana va qadriyatlarga, o‘ziga xos usul va vositalarga suyanishi tabiiy.

Biroq hozirgi zamonaviy dunyoda aksariyat yosh onalar bola tarbiyasida milliy an’analar va zamonaviy usullarning qay biriga tayanishni bilmay arosatda qolgani ham sir emas. Xalqimizda “bola uch yoshgacha podshoh” degan naql bor. Azaldan ota-bobolarimiz jajji go‘daklarni qattiq koyimaslikka, uning har qanday istaklarini bajarishga jiddiy e’tibor qaratgan. Ammo bunday hayotiy tajriba hozirgi kun talablariga qanchalik mos keladi? Yaponiyalik elektronika muhandisi, “Sony” kompaniyasi asoschilaridan biri, bolalar tarbiyasi bo‘yicha mustaqil tadqiqotlar o‘tkazgan Masaru Ibuka ushbu masalaga yangicha yondashadi. Uning “Uchdan keyin kech” nomli kitobida hayotiy, ta’limiy ko‘nikmalarni o‘rgatishga kirishish uchun bolaning ma’lum yoshga yetishini kutib o‘tirish – vaqtni boy berish bilan barobar ekanligi ta’kidlanadi.

ERTA RIVOJLANTIRISH

Muallifning yozishicha, dastlab uni yaponiyalik aksariyat yoshlarning o‘z hayotidan qoniqmasligi, o‘zini baxtsiz his qilishi jiddiy o‘ylantirib qo‘ygan. Shu bois Masaru Ibuka maktab va bog‘cha yoshidagi bolalarning hayotini o‘rgana boshlaydi. Nihoyat, olim insonning hayotda o‘z o‘rnini topishi, kelgusida baxtiyor yoki g‘amgin umr kechirishi uning bolalik chog‘lariga, ya’ni aynan uch yoshgacha bo‘lgan davriga bog‘liq ekanligini aniqlaydi. Masaru Ibuka uzoq yillik kuzatuv va tajribalari natijasida 1969-yilda Yaponiya Erta rivojlanish uyushmasini tashkil qiladi. Shu asosda ko‘plab xorijlik olimlar bilan turli tajribalar olib borish va o‘zaro fikr almashish orqali farzand tarbiyasi bo‘yicha an’anaviy yondashuvlar noto‘g‘ri, degan xulosaga keladi.

Ibukaning ta’kidlashicha, barcha bolalar tug‘ilganidayoq noyob qobiliyat egasi bo‘ladi. U endigina dunyo yuzini ko‘rgan chaqaloqlarga ham atrofidagi muhitning ta’siri juda katta ekanligi haqida mulohaza yuritib, bolalarning erta rivojlanishida qo‘l keladigan oddiy va tushunarli usullarni taklif qiladi. Kattalar mashaqqat bilan egallaydigan ko‘nikmalarni bolalar oddiy o‘yinlar yordamida ham o‘zlashtirib olishi mumkinligini hayotiy tajribalar orqali isbotlaydi. Bu jarayonda bolani qimmat ta’lim muassalarida o‘qitish emas, balki onaning u bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishi, birga shug‘ullanishi, dildan suhbatlashishi eng muhim omil ekanligini qayd etadi.

Yapon mutaxassisi erta ta’lim deganda raqamlar va har xil ma’lumotlar vositasida majburiy ravishda go‘dakni aqliy rivojlantirishni nazarda tutmaydi. Olim turli o‘yinlar yordamida bolani aqliy jihatdan kamolga yetkazish, kitob o‘qib berish, musiqa tinglashiga sharoit yaratish va ko‘proq erkalash yordamida unga dunyoni tanitish zarurligini ta’kidlaydi.

Odatda onalar farzandlari haqida hamma narsani bilaman deb o‘ylaydi. Aslida esa ular o‘z go‘dagining imkoniyat va qobiliyati borasida deyarli tasavvurga ega emas. Ular dilbandi ulg‘ayib, aqlini tanigandan keyingina unga nimalarnidir o‘rgatishga harakat qiladi. Biroq zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, inson miyasidagi hujayralarning 70-80 foizi u uch yoshga to‘lguniga qadar rivojlanib ulgurar ekan.

Ibuka bolalarga yoqimli musiqa eshittirish, skripka chalish va xorijiy tillarni o‘rgatishni azbaroyi uning kelajakda san’atkor yoki diplomat bo‘lib yetishishi uchun emas, balki iste’dodini kashf qilish, imkoniyatlarini rivojlantirish uchun amalga oshirish zarurligini uqtiradi.

TARIXIY TAJRIBA

Qadimdan insonga noyob qobiliyat Yaratgan tomonidan in’om etiladi, degan qarash shakllangan. Motsartning uch yoshida pianino chalgani, Jon Styuart Mill aynan shu yoshida lotin tilidagi mumtoz adabiyotlarni o‘qiy olgani haqida eshitganimizda, “ular tug‘ma daho bo‘lishgan” degan xulosaga kelamiz. Ammo Motsartning tarjimai holida aytilishicha, uning otasi faylasuf olim sanalsa-da, musiqaga mehri o‘zgacha bo‘lgan. Padari fortepyanoda ijro etgan musiqalarni tinglab ulg‘aygan Motsart ilk yoshlaridanoq notalarni yod olgan. To‘rt yoshidan katta-katta musiqiy asarlarni qiyinchiliksiz ijro eta boshlagan, besh yoshida esa o‘zining ilk musiqiy kompozitsiyasini yaratgan.

Bunday hayotiy misollar chindan ham barcha go‘daklar o‘ziga xos qobiliyat sohibi sifatida dunyoga kelishidan guvohlik beradi. Kelajakda ularning ana shu salohiyatining yuzaga chiqish-chiqmasligi esa ota-onalar e’tibori va tarbiyasiga bog‘liq.

Bugungi kunda aksariyat ota-onalar ikki-uch yosh oralig‘idagi farzandlari bilan munosabatga kirishish va ularni tarbiyalashda qator muammolarga duch kelishmoqda. Ruhshunoslarning ta’kidlashicha, bu davr – bolaning o‘z “men”iga ega bo‘lishi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasining shakllanishi, tuyg‘ularini ochiqcha ifodalashi, qiziquvchanligi, kashfiyotlar qilishga intilishi namoyon bo‘ladigan, kattalarning mehr-muhabbatiga tashna bo‘lgan muhim palla hisoblanadi. Bu paytda ularning yuqoridagi kabi xohish-istaklarini e’tiborsiz qoldirmaslik lozim.

IBN SINO O‘GITI

Ulug‘ mutafakkir Abu Ali ibn Sino ham “Tadbiri manzil” risolasida farzand tarbiyasida ilm va axloq uyg‘unligi masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Allomaning nazdida shaxs tabiatiga ijobiy fazilat va odatlarni singdirish qanchalik mushkul bo‘lsa, uning fe’liga singib ketgan salbiy odatlarga barham berish ham shunchalik murakkab ishdir.

Ibn Sino farzandlarga barvaqt tarbiya berishning ahamiyati haqida shunday yozadi: “Bolaga uning tana bo‘g‘inlari barqaror bo‘lgan, tili to‘g‘ri va ravon gapirish, quloqlari o‘zgalarning so‘zlarini tinglash va qabul qilish darajasiga yetgan paytdan boshlab ilm va axloq-odob asoslarini o‘rgatishga kirishish lozim”. Bundan ko‘rinadiki, ajdodlarimiz ham erta tarbiyani yoqlashgan. Ota-bobolarimizning bolani behuda koyimaslik, unga bosim o‘tkazmaslik haqidagi hayotiy taomillari ham aslida go‘dakning jur’atsiz, qo‘rqoq bo‘lib ulg‘ayishining oldini olish va ruhiyatiga ozor yetkazmaslikni nazarda tutadi.

BOQIY MEROS

Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiyaga e’tiborsizlikning oqibatlari haqida kuyunchaklik bilan shunday yozgan edi: “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyasiga e’tibor berilmagan bolalardir”. Darhaqiqat, ota-onaning farzandiga qoldirishi mumkin bo‘lgan eng katta merosi bu – munosib tarbiyadir.

Bola tarbiyasiga esa, asosan ona mas’ul hisoblanadi. Bunday ulkan mas’uliyat ayolni ilm va izlanishlar sari chorlashi lozim. Axir, yosh avlodning kelajagi uning aql-zakovatiga bog‘liq. Afsuski, ko‘pchilik onalarning bilimsizligi va farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi tufayli ham jamiyatimizda jinoyatga, zo‘ravonlikka moyil bolalar soni kamaymayapti.

Ona – misoli bir ko‘zgu. Uning har bir xatti-harakati yoki og‘zidan chiqqan yaxshi-yomon so‘zini farzandi aynan takrorlashga intiladi. Xalqimizning “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naqli ham tarbiya qay darajada nozik masala hisoblanishini ko‘rsatib turibdi.

Xullas, farzand tarbiyasidek mas’uliyatli ishga qanchalik erta kirishsak, natijasi ham ko‘ngildagidek bo‘ladi. Zero, farzandga vaqtida berilgan tarbiyaning ahamiyati unga o‘z vaqtida tutilgan taomdan afzalroqdir.

Vasila HABIBULLAYEVA

SO‘Z MULKI

JADID LUG‘ATCHILIGI

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida jadidlikkacha bo‘lgan davrda, asosan, izohli lug‘atlar tuzish, mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy asarlarini tushunishni ta’minlash va yangi shakllanayotgan eski o‘zbek adabiy tilini targ‘ib qilish, uning o‘ziga xos jihatlarini ommaga singdirishga yordam beradigan lug‘atlarni yaratish yetakchilik qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan lug‘atchilikda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lgani, lug‘at tartib berishda zamonaviy yondashuvlar yuzaga kelgani va yangi tipdagi lug‘atlar yaratilgani e’tiborni tortadi.


O‘zlarining turli janrlarga oid qimmatli asarlari bilan o‘zbek adabiyoti, madaniyati va ma’naviyati tarixida alohida o‘rin tutgan jadid ma’rifatparvarlari tilshunoslikning lug‘atchilik sohasida ham samarali faoliyat yuritishdi. Ular lug‘at yaratish borasida ham salmoqli izlanishlar olib borib, o‘zbek leksikografiyasini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shishdi.

Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan chor Rossiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlaka siyosati mahalliy turkiy xalqlarning tili, madaniyati va etnografiyasini o‘rganish, ular orasida kuzatuv ishlarini olib borish ehtiyojini vujudga keltirdi va bu hol o‘zaro muloqotni ta’minlovchi ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar yuzaga kelishiga zamin bo‘ldi. Bunday yo‘nalishdagi ilk lug‘atlar rus ziyolilari hamda davlat xizmati vakillari tomonidan yaratildi. A.Starchevskiyning “Переводчик с русского языка на сартовский” (1878), S.Lipinning “Русско-узбекский словар” (1884), В.П.Наливкин ва М.Наливкинанинг “Русско-сартовский и сартовско-русский словар” (1884-1912) kabi lug‘atlarini shular sirasiga kiritish mumkin.

Bu davrda jadid ziyolilari ham ommaning ongi, ilm darajasini yuksaltirish maqsadida ana shunday ikki tilli lug‘atlar ustida ish olib borishdi. Dastlab Ashurali Zohiriyning “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at”i paydo bo‘ldi. Keyinchalik Abdulla Qodiriy hammuallif bo‘lgan “Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik” lug‘ati yuzaga keldi. Bu mualliflar lug‘at tartib berishda o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini, shakllanayotgan yangi o‘zbek adabiy tilining leksik, grammatik me’yorlarini e’tiborga olgan holda jonli xalq tilidan ko‘plab so‘z va iboralarni kiritishdi.

“Chig‘atoy gurungi” jamiyati a’zosi Elbek faoliyatida ham lug‘atchilik alohida o‘rin tutadi. U XX asrning 20-30-yillarida o‘zbek tilining so‘z xazinasini boyitish, ona tilimizni ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, milliy adabiy til yaratish yo‘lida izlanishlar olib borib, “Lug‘at va atamalar”, “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati” hamda “O‘zbek to‘la so‘zligiga materiallar” nomli asarlarini yozdi. Omonim so‘zlarning ma’nolari bir necha izoh usullari yordamida ochib berilgan “O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati” o‘zbek leksikografiyasi tarixida birinchi maxsus lug‘at hisoblanadi. “O‘zbek to‘la so‘zligiga materiallar” asarida esa so‘zlarning talaffuzi va imlosida bir xillikka erishish, asos va qo‘shimchalar imlosi, so‘zlarning yasalish tiplari haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Taniqli ma’rifatparvar adib Abdurauf Fitrat o‘zbek adabiyoti tarixini tizimli ravishda tadqiq etib, dastlab “Eng eski turk adabiyoti namunalari”, so‘ngra “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmualarini chop ettirdi. Olim “Eng eski turk adabiyoti namunalari” kitobida Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit turk” asarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha o‘rganib, unga maxsus “Lug‘at” qismini qo‘shadi hamda asar matniga kirgan sof turkiycha so‘zlar izohini beradi. Jami 126 ta sof turkiycha so‘z izohlangan mazkur lug‘at etimologik lug‘at, qiyosiy-tarixiy lug‘at, o‘zbekcha-forscha-arabcha tarjima lug‘at, qolaversa, izohli lug‘at belgilarini ham o‘zida aks ettirgan. Bu holat Abdurauf Fitrat lug‘atshunos jadid adibi ekanini ham ko‘rsatdi.



Abdurauf Fitratning 1925-yilda chop etilgan eski o‘zbek yozuvidagi “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Sarf” darsligi.

Shuningdek, Is’hoqxon Ibratning “Lug‘oti sitta alsina” (olti tilli) lug‘atini mazmun-mohiyati bilan o‘sha davrda yangicha yo‘nalishdagi, ya’ni G‘arb lug‘atchiligi an’analari ta’sirida yaratilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin. To‘g‘risi, o‘zbek leksikografiyasida Ibratga qadar ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, ya’ni olti til manbalari qamrab olingan va ular o‘zaro qiyoslangan boshqa lug‘at tuzilgani yo‘q. E’tiborli jihati, Is’hoqxon Ibrat bu ishga qo‘l urishdan oldin turkiy, arab, fors-tojik, usmonli turk hamda rus lug‘atchiligi bilan ham to‘la tanishib chiqadi.

“Lug‘oti sitta alsina” ommabop lug‘at hisoblanib, keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallab tuzilgan edi. Muallif ta’kidlaganidek, “safar ahli”ga mo‘ljallab tuzilgan ushbu so‘zlashgich lingvistik manba sifatida o‘sha davrdagi Sharq va G‘arb lug‘atchiligi tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirgan, xalqimizni jahon mamlakatlaridagi madaniy hayot, fan va texnikaning ilg‘or yutuqlari, yangiliklari bilan tanishtirish barobarida xorijiy tillarni ham egallashga da’vat etgan, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy takomilida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan leksikografik asar sanaladi.

O‘tgan asrning 20-yillarida zamonaviy ilm-fan asoslari, xususan, iqtisod va siyosat sohasidagi yangiliklar bilan tanishishda yetakchi mavqega ega bo‘lgan rus tilida qo‘llaniladigan terminlarning o‘zbekcha tarjimasini lug‘atlar shaklida berish ehtiyoji mavjud edi. Shunga asosan, Nazir To‘raqulovning “Rus-o‘zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug‘atchasi” risolasi yuzaga keldi. Bu lug‘at ancha murakkab xususiyatga ega edi. Lug‘at ikki tilli (ya’ni ruscha siyosiy-iqtisodiy terminlarning o‘zbekcha tarjimasi berilgan) bo‘lsa-da, biroq unda terminlar tarjimasida ularning to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalenti (muqobili) berilgan holatlar ham, terminlarning tarjimasi bilan birga izohi berilgan holatlar ham uchraydi. Lug‘at rus alifbosi alfaviti tartibida tuzilgan bo‘lib, unda jami 403 ta ruscha terminning o‘zbekcha tarjimasi va izohi berilgan. Ushbu lug‘at o‘zbek lug‘atshunosligida o‘ziga xos o‘ringa ega. U soha terminlari to‘plangan ilk lug‘at bo‘lgani uchun ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Lekin bu hol uning qadri va ahamiyatini zarracha pasaytirmaydi.

G‘ozi Olim Yunusovning “Ruscha-o‘zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug‘at”i o‘zbek lug‘atchiligida terminologik lug‘atlar yaratish yo‘nalishida ikkinchi leksikografik asar hisoblanadi. Muallif so‘zboshida mazkur to‘plam haqida shunday yozadi: “Ruscha-o‘zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug‘at”ni yozishdan maqsad huquqiy adabiyotdagi, xususan, tarjimadagi atamalarga qat’iy va muayyan bir shakl berish va shu yo‘l bilan istiloh quramalig‘ini (ixtilofini) bir daraja bo‘lsa-da kamaytmakdir”. G‘ozi Olim Yunusov lug‘ati arab alifbosi tartibida tuzilgan, unda jami 1381 ta ruscha atamaning o‘zbekcha tarjimasi va izohi berilgan edi. XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tilining siyosat va huquq sohasiga oid terminologik tizimi barqarorligini belgilash, uni tartibga solish va muntazamligini ta’minlash hamda atamalar lug‘ati sohasini rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jadid namoyandalarining tilshunoslik sohasidagi amaliy faoliyati o‘zbek leksikografiyasini yangi bosqichga ko‘tardi. Bu davrda yaratilgan lug‘atlar, avvalo, o‘zida tarix va yangi davrni mujassamlashtirgani bilan xarakterlanadi. Ularda klassik Sharq va zamonaviy G‘arb leksikografik amaliyoti uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin. Qolaversa, jadidlar tuzgan lug‘atlarda asosan badiiy asar tilini tushunish uchun xizmat qilgan o‘zbek mumtoz lug‘atlaridan farqli ravishda ko‘proq til o‘rgatish va til ta’limi masalalariga urg‘u berilgan. Bunday asarlar o‘zbek zamonaviy lug‘atchiligining keyingi taraqqiyoti uchun o‘ziga xos poydevor vazifasini o‘tadi.

Sulton NORMAMATOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ

QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Karimov Abdulla – 1896-yili tug‘ilgan. Aksilinqilobchi tashkilotning rahbarlaridan biri sifatida hokimiyatga qarshi qurolli kurashni tashkil etish uchun isyonchi xodimlarni tanlab olish, “o‘nglar” va trotskiychilar bilan jinoiy aloqada bo‘lib, xalq xo‘jaligida zararkunandachilik bilan shug‘ullanganlikda ayblangan. Sud Abdulla Karimovni RSFSR Jinoyat kodeksining 58-1 “a”, 58-7, 58-8, 58-9 va 58-11-moddalari bo‘yicha otuvga hukm qilgan. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etilgan.

Abdullaxonov Abdurahmon – 1892-yili tug‘ilgan. U O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblangan. “Milliy ittihod”ning rahbari, aksilinqilobiy ishlari va 1920-yili bosmachilar to‘dasi bilan aloqada bo‘lgani uchun hibsga olingan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan, muddati 1937-yil 14-sentyabrdan hisoblangan. Oradan 12 yil o‘tib 1949-yil 3-avgustda sovetlarga qarshi millatchilik tashkilotiga mansubligi uchun surgun qilingan.

Odiliy Muhammad – 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Qamoqqa olingunga qadar O‘zSSR Yer-suv ishlari xalq komissarligi, O‘zbekiston naslchilik idorasi tayyorlov boshqarmasida xizmat qilgan. Uning ustidan 976562-sonli arxiv-tergov ishi rasmiylashtirilgan. Aksilinqilobiy millatchi tashkilotning a’zosi sifatida 1937-yil 29-iyulda qamoqqa olingan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha otuvga hukm etilgan.

Yoqubov G‘ulom – 1900-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1937-yil 3-sentyabrda aksilinqilobiy tashkilotga a’zoligi sababli hibsga olingan. Dastlabki tergovda tashkilotga yangidan yangi a’zolarni jalb etganlikda, noqonuniy yig‘inlarda ishtirok etganlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57-1, 58, 63, 64 va 67-moddalari bo‘yicha jinoyat sodir etganligini tan olganligi uchun otuvga hukm etilgan. Unga tegishli bo‘lgan barcha mol-mulk musodara qilingan.

Xo‘jayev Muhammadjon – 1898-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Dastlab Qo‘qon shahridagi tatar maktabida, so‘ngra rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Tojik, rus tillarida erkin so‘zlashgan. 1908-1912-yillarda jadid maktabida tahsil olgan. 1920-yildan 1932-yilgacha Xo‘jandda xalq sudi kotibi, Farg‘ona viloyati sudida xalq tergovchisi, Farg‘ona viloyat prokuraturasida tergovchi, Qo‘qon trikotaj sanoati uyushmasi boshqaruv kotibi lavozimlarida xizmat qilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi ekanlikda ayblangan. 1937-yil 19-oktyabrda otuvga hukm qilingan. Hukm 1937-yil 7-noyabrda ijro etilgan.

Tursunxo‘jayev Sa’dullaxo‘ja – 1891-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. U Chor Rossiyasi va Sovet rejimiga qarshi siyosiy faoliyati uchun bir necha bor ta’qibga uchragan. 1916-yil qo‘zg‘olonda ishtirok etgan. Qo‘qonda qamoqqa olingan. 1918-yili Toshkent Eski shahar ijroiya komiteti raisi o‘rinbosari, 1918-1919-yillarda Turkiston ASSR Sog‘liqni saqlash xalq komissari, Tashqi ishlar xalq komissari, BXSR Savdo va sanoat xalq noziri, XXSR Ijtimoiy ta’minot savdo-sanoat noziri lavozimlarida faoliyat olib borgan. 1937-yil 27-aprelda Olmaota shahrida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi 1938-yil 4-oktyabrda Toshkent shahridagi yig‘ilishida Sa’dullaxo‘ja Tursunxo‘jayev otuvga hukm etilgan.

Hasanov Muhammad – 1904-yil 22-iyulda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Qamoqqa olish paytida “Правда востока” gazetasining muharriri bo‘lib ishlagan. “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zosi, Toshkent va viloyatlardagi gazeta tahririyatlariga mazkur tashkilotning ishonchli kishilarini qo‘yishda xizmat qilgan deya ayblangan. Buni tasdiqlaydigan bironta dalil keltirilmagan. U 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida sud qilingan. 1938-yil 4-oktyabrda otuvga hukm qilingan.

Asadullaxo‘jayev Ubaydullaxo‘ja – 1878-yil Toshkentda Qoryog‘di mahallasida tug‘ilgan. Rus-tuzem maktabini bitirgan. 1913-yil 21-dekabrda “Sadoyi Turkiston” nomli gazeta chiqarish uchun ruxsat olgan. O‘sha yili uning rahbarligida sahnada “Padarkush” pyesasi qo‘yilgan. “Sadoyi Turkiston” yopilgandan so‘ng Andijonda advokatlik qilgan, 1-iyuldan “Туркестанский голос” gazetasida ishlagan. Mardikorlikni bekor qildirish uchun millatparvar Mirkomil Mirmo‘minboyev bilan birga Peterburgga borgan. “Sho‘royi islom” jamiyati raisi, Turkiston muxtoriyati hukumatining harbiy ishlar vaziri lavozimlarida xizmat qilgan. Mustamlakachilikka qarshi kurashgan, millatchilikda ayblanib, qatag‘onga uchragan.

Xidiraliyev Inomjon – 1891-yili Namangan viloyatida tug‘ilgan. 1928-yil 31-dekabrda Moskvada sirli ravishda o‘ldirilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining asosiy a’zolaridan biri bo‘lgan. 1919-yil 24-avgustda “Birlik va taraqqiyot” (“Ittihodi va taraqqiy”) nomli maxfiy tashkilotda faoliyat olib borganligi aniqlangan. U Andijon shahar mudofaasida qatnashgan. Andijon shahri 2 hafta qamalda qolgan. Markazdan kelgan Qizil armiya jangchilari tomonidan “Dehqonlar armiyasi” mag‘lubiyatga uchragan. Andijonda Sovet hokimiyati saqlanib qolgan. 1919-yil 24-dekabrda Andijon shahar partiya komitetining V konferensiyasida I.Xidiraliyev shahar partiya komitetining mas’ul kotibi etib saylangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TABDIL

TANBUR



XX asrning 20-yillarida san’atning barcha turlari qatori musiqaga ham jiddiy e’tibor berildi. Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” nomli maxsus kitob yozgani ham ma’lum. G‘ulom Zafariy esa “Sharq musiqalari va cholg‘ulari”, “Musiqa muammosi”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” kabi maqolalarini e’lon qilgan.

O‘z davrining adabiyoti va san’ati ko‘zgusi bo‘lgan “Maorif va o‘qituvchi” jurnali ham milliy musiqamiz tarixi, musiqa qurollari to‘g‘risida maqolalar berib boradi. Quyida buxorolik Rajabzodaning mashhur sharq milliy cholg‘u asboblaridan biri – tanbur va uning boshqa xalqlar musiqa asboblari bilan taqqoslangan maqolasini gazeta o‘quvchilariga taqdim etamiz.

TAHRIRIYAT

Go‘zal san’atlarimiz qatorida musiqamizning tarixi ham tekshirilmagan, jon ozig‘i bo‘lg‘on maqomlarimizning tuzilishi, har vaqt o‘ziga ta’sir bilan bizni tortish kabi musiqamizning shunday xususiyatlarini sira o‘ylamaymiz. Holbukim, musiqamizning tarixi betlari qorong‘i puchmoqlardan bitib ketmakdadir.

Bu kungi 15-20 turli musiqiy qurollarimizning, o‘ziga maxsus ancha tarixi bordir. Bir oz tekshirsak, go‘zal san’atlarimiz uchun juda ham muhim parchalar yuzaga chiqararmiz. O‘zining mungli tovshi bilan, musiqiy qurollarimiz orasida “tanbur” ko‘blarimizga ta’sirni anglatishda birinchi o‘rin turadir.

Tarix betiga ko‘z solsaq, tanburni cholg‘ularimiz orasida eng eski va tugal-to‘kis ekanligini ko‘ramiz. Musiqa bilan tanish kishilarga belgilikim, tanbur butun cholg‘ularning negizidir. Bundan o‘zga, tariximizda barmoq bilan sanayturg‘on buyuk musiqachilarimizning ko‘pisi sharq maqomlarining negizi sanalg‘on buzruk, navo, segoh kabi nafis kuylarimizning yuzda saksoni shul tanbur orqali yanglishsiz oladirlar. Qolg‘on cholg‘ular esa kuylarni olishda tanbur qadar qulayliq bera olmaydir. Demak, bu qurolni “sharq piano‘si” desak juda yarashiqdir. Chindan-da “piano‘” Ovro‘poning butun musiqachilarig‘a birdan bir qurol bo‘lib, eng mashhur o‘peralar, eng oldin piano‘ bilan tuzilganligi kabi sharqning-da eng dongli maqomlari tanbur bilan oling‘ondir...

Musiqiy qurollar orasida navo, segoh, iroq kabi kishi tabiatiga juda ko‘b ta’sir etaturg‘on kuylarimizni istaganimizcha chalish uchun mos qurol yana shul tanburning o‘zginasidir. Zotan, tanburning o‘ziga maxsus bo‘lg‘on chalish yo‘li (uslub tarannumi) musiqiymizning asosiy uslubiga ancha katta ta’sir etkandirkim, yuqoridag‘i kuylarimizning barchasig‘a tanbur mos keladi, desak-da to‘g‘ridir.

Turli millatlarning musiqiyg‘a qarshi ko‘ngil tortishlarini tekshirgan hukamolarning so‘ziga ko‘ra, musiqiyni tinglag‘ondan, har millatning tilagi bir turli emasdir. Masalan, Ovro‘poning g‘arbi va shimoli yoqlarida yashag‘uvchi millatlar bir vaqtlarda musiqiyni yolg‘iz o‘yin (raqs) o‘lturishlarida qo‘llag‘ondir. O‘yindan boshqa yana bir talay ashulalar olinsalar ham, biroq buning ahamiyati burung‘idan past bo‘lib, ikkinchi va uchinchi qatorda turar edi.

Bu so‘ng choqlarda bitkan o‘peralar ham shundan qolama narsalardir.

Sharq o‘lkasida musiqiy bilimi negizida yoqimli tovushlar, kuylar, havolar qabul etilganligi uchun unga jon ozig‘i, deganlar. Sharq musiqiysida bastalangan kuylarning ko‘pisi ruh va fikrga boqaturg‘on shoirona nuktalardan, sufiyona, zohidona hikmatli so‘zlardan tuzilgan she’rlardan terilib bastalangan...

Bugungi qo‘limizdag‘i sharq musiqiy bitiklaridan yoqimli havolardan so‘z ochib, bundan o‘zgasini ko‘zdan tashlab yuborilmishdir. Mana endi, Ovro‘poda bo‘lsa, musiqiyni teatr va sahnasiga tatbiqi natijasi o‘laroq bu kabi turli kishilik sezgilarini musiqa orqali jonlantirib ko‘rsatishka majbur bo‘lg‘on Ovro‘po musiqiychilari o‘shal havo kuylarni yoqimli tovush bilan chalish bo‘lmag‘onliqdan, sharq musiqiysidan chiqorilmish haligi surgin musiqiyning bir bo‘lagi sanab, musiqiylarig‘a kirgizib qo‘llashg‘a majbur bo‘lg‘onlar.

Bir bilimda g‘oya, tilak, san’at, muhorat qaysi yoqda bo‘lsa, taraqqiy va bilim o‘shal tomonda bo‘lishi bilgilidir. Shunga ko‘ra, sharq musiqiysida negiz tutilg‘on yoqimli kuylar juda ko‘b taraqqiy etkan.

Qay bir sharq maqomlarini Ovro‘po kuylari bilan chog‘ishtirilib ko‘rilsa, sharq kuylarining qancha boy, turli tovushg‘a ega ekanligi bilinadir.

Endi, sharqning shuncha nozik, yurak yoritg‘uchi kuylarini bizga ko‘rsatguchi bir oz bo‘lsa, u-da tanburdir...

Sharq kuylarining mazasini shunday asboblari tugal o‘rinda o‘nglamasa, boshqa biror biri bilan o‘nglab bo‘lmaydir. Bunda ko‘rsatilmish musiqiy qurollarimiz chiqmish tovushlari bir-biriga shunday qorishadirkim, buni eshitkuchi o‘zini ko‘klam chog‘ining go‘zal ko‘ngilli bir kunida tog‘lar ustida, buloqlar yonida gullar orasida suvning shildir-shildir qilib oqish tovushini eshitib turg‘onday bo‘ladir.

RAJABZODA (Buxoro)
“Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 1926-yil 2-sonidan.
Sohiba KARIMOVA
nashrga tayyorladi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Bolalarni boy beryapmiz...

Tunov kuni bir do‘stimnikiga oilaviy mehmonga bordik. Mehmondorchilikning doimiy an’anasiga muvofiq, kattalarga alohida, bolalarga alohida joy qilingan.

Ikki qizim va o‘g‘lim do‘stimning farzandlari bilan avval o‘yin-kulgi bilan ovora bo‘lishdi.

Biz ham o‘zimiz bilan. “Hayot quvonchlari va tashvishlari turkumidan” suhbatimiz qizigandan qizidi. Bolalar o‘yinqaroqlikdan zerikkach, televizor qarshisida to‘planib, Yutub orqali “Masha va ayiq” multserialini ko‘ra boshlagani e’tiborimni tortdi.

– Senikilar ham ko‘risharkan-da bu multfilmni, – dedim do‘stimga.

– Ha, nimasini aytasan, hamma qismlarini yoddan bilishadi, – dedi u bolalarga jilmayib qaragancha.

Ikkimiz ham bir muddat bolalarga qo‘shilib multfilm ko‘ra boshladik.

Masha juda sho‘x, ko‘ngliga kelganini qaytarmay qilaveradi. Har ikki daqiqada yangi voqea boshlanadi, har besh daqiqada yangi sarguzasht...

Ayiq esa Mashaning barcha injiqliklarini so‘zsiz bajaruvchi qahramon. Bolalar uchun ideal syujet!

Multfilmni tomosha qilarkanman, shu kabi o‘ylar xayolimdan o‘tib, beixtiyor do‘stimga savol berdim:

– Menga qara, mana shu multfilmning bosh qahramoni kim?

– Masha.

– To‘g‘ri. Bir qarashda Masha. Sening ham, mening ham, bolalarimizning nazdida ham Masha asosiy qahramon. Ammo...

– Nima ammo?

– Jiddiyroq o‘ylab ko‘rsak, aslida bosh qahramon – Ayiq! E’tibor bergin-a, Ayiq obrazi juda mehribon, jonkuyar, samimiy va sabrli…

– Xo‘sh?

– Multfilmni tomosha qilayotgan bolalarimizning muhabbati Ayiqqa yo‘naltirilmoqda. Ularga Masha kerak emas, chunki ularning o‘zi Masha! Sho‘x, quvnoq, tinim bilmas, erkatoy va hokazo. Ularga Ayiqdek do‘st kerak. Hamma injiqliklarini ko‘taradigan, mehribon, kreativ va samimiy. Ular bu multfilmni Ayiq uchun ko‘radilar.

– Bolalar Ayiqni yaxshi ko‘rib qolishlari kimga kerak? Qiziqsan-da...

– Hamma gap mana shunda aslida!

Xullas, biz keyingi vaqtlarda bolalar uchun kontent, xususan filmlar, multfilmlar yaratishni susaytirib yubordik. To‘xtatib qo‘ydik, desak ham bo‘ladi.

Yoshlarning ma’naviyati bilan esa ular kollej, institut yoshiga yetganida shug‘ullanyapmiz. Ular esa ko‘pincha bizni tushunishmaydi. Chunki ular allaqachon Ayiqqa mehr qo‘yib bo‘lgan.

Jahongir AHMEDOV
Facebook

ZARDA

CHIP-CHIP, JO‘JALARIM!

Ha, Landavur? Soqol oqarganda endi murti nish urgan churvaqalar qatorida manam dessertasiyon yoqlayman deb, zamonamizning ulamo-yu kalonlariga murid tushib o‘tirsam, endi bunisiga nima deysan? Nega murid tushding, sanga dessertasiyon nima kerak deysanmi? Nimabbalo, to‘rt tanga uchun bozorda arava sudrayverib to‘g‘ining mayishib, zamondan ortda qop ketdingmi deyman, Landavur?! Axir bu qurg‘ur dessertasiyon deganini yoqlabmi-yog‘labmi, bir amallab o‘zingniki qilib olsang, kimsan falon-u piston, peyjiymi-meyjiymi bo‘vosang, uloqchi otning kallasidek oylig-u maosh olasan-u pichog‘ing moy ustida sirg‘anadi, akang aylangur!

Hay, ulamo-yu kalon ustozi darozni daragini so‘raydurg‘on bo‘lsang, mayda-chakanalardanmas, bo‘libam naqd nahanglardan ekan, uncha-muncha cho‘rtan-po‘rtanlaring uni dargoyida itbaliqday biltanglab qoladi. O‘tgan yili bir-mas-ikkimas, o‘ttiz ikkita shogird chiqardim, bu yilgi hosil ham undan avlo bo‘lsa bo‘ladiki, minba’d kam emas, deydi dangaliga. Mani yelkamga chap kaftini mardonavor tashlab, san bola bu yil hisobidan yigirma oltinchisisan. “Yigirma oltinchisi otilmasin” degan kinoni ko‘rganmisan, deb xandon otadi. Nima man “Omad lotto”ni yelim soqqasimidimki raqam qo‘yasiz, taqsirim, desam “soqqaliging rost, lekin seni lotareyangga yutuq chiqqaniyam chin”, deb negadir chap ko‘zini qisib qo‘yadi.

To‘g‘ri, Landavur, maktabni sirtdan bitirganim o‘zingga ma’lum. Bizni davrda darsni eplab o‘zlashtirmasang, sinfda qoldirish jazosi bo‘lardi, esingda bo‘lsa. To‘ng‘ichimning qo‘lini halollaganimdayam kissamda yetuklik shahodatnomasi yo‘g‘idi – o‘ninchini to‘rtinchi topqir qayta o‘qiyotuvdim. San-ku, pochchang maktab qorovuli bo‘lib, dimog‘ing osmon, maktabni o‘n to‘rt yildayoq yumaloq yostiq qip tashlagansan, besh ketganman. Landavur, gapingni paynovi qaqqa ketayotganini pamlab turibman. Alifni kosov deydigan chog‘ing yo‘g‘-u, ilmni noni tushib qoptimi sen so‘taqo‘ziga, demoqchisan-da. Endi, oshna, tirikchilikni aybi yo‘q, davring keldi sur begim, deb qo‘ygan joyi bor. Manga nima, soqqasini dumalatsam, olim degan darajotni yelkamga pagon qip qo‘yadigan dodho tayyor bo‘lsa. Ikkinchidan, bir kun taxtaga tarang tortilib, g‘assol iyagimni sirtib bog‘lar chog‘ida hovlida uvvos soladigan jigargo‘shalarim quruq-



qina “voy adam”lagani qayoqda-yu “allomayi zamon adam, Suqrot adam, Luqmon adam” deb tobutga tirmashgani qayda? Voy, nega kulasan, Landavur?

Ilmiy ishingni mavzusi nima deysanmi? Markaziy Afrikaning Mbaka qabilasi ritual raqslari va Anjan po‘lkasi musiqasining inson ruhiyatini poklashdagi ritmik ahamiyati. Nimasiga tushunmaysan? “Odamlarga nima naf bor? Odamlarga nima naf bor?” deb to‘tiqushlanganing nimasi? Manga nafi bor, manga, xo‘pmi? Boya shalpang qulog‘ingga Rasul qorini tanburini chertdimmi? Oylik-maoshim ko‘payadi, demak, do‘st-ulfat safi kengayadi, undan keyin odamlar orasida obro‘yim oshadi. Asosiysi, xotin jonivor ham mullajiring oqib kelayotganini ko‘rsa, odam qatoriga qo‘shib, yuvilgan kosada ovqat tutib, qaynag‘alar salomimga alik olib qolar... Hozir oylik kimda desang, dessertatsiyon pattasini olganda, oylik undami, boylik ham o‘shanda. Ulamo-yu kiromning qo‘liga murid tushgan qalang‘i-qasang‘ilar arzimagan narsalarda dessertasiyon qilib, otning kallasidek oylik-maosh olsin-u man qoqnon kavshab o‘tiraymi, qani adolat? Manam yoza bilaman: “eshak”ka ketadigan “e” bilan “in”dagi yoziladigan “i”, “echki” bilan “ichki”ning farqi, qattiq “x” bilan yumshoq “h”... muammoyi zamona bo‘lmay nima? Bularni dessertasiyon qilib man yozmasam san yozasanmi? Domulloga beradigan soqqani qaysi go‘rdan olasan, deysanmi? Jiyanim Ahmadali bilan esh-qo‘sh bo‘lib Xitoyga qatnab yotibman-u... oti moshin borki, zapchastini o‘sha qiyako‘zlar qiyib tashlarkan. Yana domullom aytadiki, hatto Xitoyda bo‘lsayam ilm izlab top degan joyi borakan.

Bayt:

Ilm qasdida bo‘lsang
agar chindanam,
O‘lja topursan
muqarrar Chindanam.

U tarafdin xayrixohlig‘
bas sango,
Kemtigingga yamoqtur
zapchast sango...

Domullongni “Zo‘r TV”da bir ko‘rdim, hovuriga osh pishadi deysanmi? Ha endi, ilmiy ishni tovuqxona biznesiga aylantirib olgandan keyin, xo‘rozlanib gerdayadi-da. Bu yog‘ini so‘rasang, bu tovuqxonaga kirishga uncha-muncha odamni ta’bi tortmaydi shekilli, nazorat-pazorat yo‘q. Bu yoqda peyjiylar inkubatordan chiqqan yetim jo‘jalarday “chiy-chiy”lab yuribdi. Son-sanog‘i yo‘q. Bunaqa jo‘jalar qancha ko‘p bo‘lsa, akang xo‘rozning joniga rohat. Chap qo‘li bilan olgan ilmiy ish haqi bir bo‘lsa, muridlar sanog‘iga qarab oladigani o‘n deyaver, Landavur. Bular jo‘jani kuzdamas, yil bo‘yi sanaydi-ya, ko‘z tegmasin. Yana dasturxon chetiga yog‘liq dahanini surkalab “Alhamdullo, jo‘jabirday jonmiz” deb qo‘yadi. Yana, ishni osonligini qara! Hozir kamputirga qalovini topib buyruq bersang, istagan ajnabiy tildagi dessertasiyonni chappa qilib ag‘darib tashlayverarkan. O‘zbekchalashtirib, Kilian Mbappe o‘rniga So‘taqo‘zi Qo‘chqoraliyev deb yozib qo‘ysang bo‘ldi. Ilmiy ish seniki, olim sensan, olam seniki.

Landavur, gap o‘zimizniki. Agar xo‘p desang, saniyam gaplashib propessir qivoraman. Azgina ataganingdan otsang bo‘ldi. Ha, surnay chalayotgan kenguruni ko‘rganday olayasan? Ja o‘zingni yerga urma, bola. Hartugul, maktabda mendan sal peshroq bo‘gansan, kamtarlik qima. Ochig‘ini aytaymi, hozirgilarni gapini eshitib, pikrini ting‘shab, yozuvini o‘qishga urinib ko‘rgin... Bu savodiga kuya tushgan paytavaquloqlarni oldida san avliyo-yu, man Arastuning naq o‘ziman. Ha, bo‘pti, man jo‘jalarim bilan tilponlashay, san xotin akang bilan kengashib, tanangga o‘ylab boq. Aytgancha, xo‘roz hamma joyda ham bir xil qichqirmaydi, Landavur. Esdan chiqmasin-a!

OVSAR

Husan SODIQOV chizgan surat.

TILBILIM

VAFO VA VAFOT

Qiziq, “vafot” va “vafo” so‘zlari bir o‘zakdan – “bajardi” ma’nosidagi arabcha “vafā” yoki “vafā’un” fe’lidan yasalgan ekan. Demak, ularning ma’nolarida ham umumiylik bor. Boshqa tillardan farqli arab tilida fe’l boblari degan hodisa bor, deylik, mazkur fe’lning birinchi bobidagi shakli – “vafā” bo‘lib, “1. Bajardi; 2. Va’dasini, ontini bajardi; 3. Qarzini to‘ladi” kabi ma’nolarni bildirsa, ikkinchi bobda bu fe’l: “vaffā” shaklini oladi va “to‘liq to‘lash, to‘liq qoniqtirish” kabi ma’nolarni, ya’ni ish-harakatning uzil-kesil bajarilganligini bildiradi.

“Vafā”ning uchinchi bobdagi shakli lug‘atda: “vāfa” deb ko‘rsatilgan, ya’ni bu bobda fe’lning ikkinchi harfi cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Ma’nosi ham birinchi bobdagi “bajardi”dan ancha farqli, ya’ni kelish, erishish, yetib kelish kabi ma’nolarni bildiradi. Fe’lning uchinchi va undan keyingi boblaridagi shakllari: ish-harakatning to‘liq tugallanishi, poyoniga yetishi, shuningdek, umrning ham tugashi kabi ma’nolarga ega ekan. Beshinchi bob shakli esa – “tavaffa” va ma’nosi: “1. Olish, to‘liq, uzil-kesil olish; 2. O‘lish”. Misol: “tuvuffia ala rahmatullah” – “Allohning rahmatiga qovushdi // Allohning rahmati ila o‘ldi”.

Tilimizda shu o‘zakdan yasalgan yana bir so‘z bor – “iste’fo”. Bu masdar “vafā” fe’lining o‘ninchi bobi – “istavfa” shaklidan yasalgan. “Iste’fo” so‘zi ham ish-harakatning tugaganligini bildiradi va biz uni, asosan, ishdan bo‘shash yoki bo‘shatilish ma’nosida qo‘llaymiz. Xullas, vafo – va’daga vafo qilish, to‘liq bajarish, so‘z ustida turish, qasam, ontga amal qilish, qarzni to‘liq to‘lashni anglatadi. Bizda bu so‘z ko‘proq sevgi bilan yonmayon ishlatiladi: sevgiga vafo qilish, vafodor, bevafo.

Vafot – umrning tugashi, o‘lim. Deylik, vafo – kishi irodasi, sa’y-harakatiga bog‘liq amal bo‘lsa, vafot – Allohning irodasi.

Iste’fo – “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “o‘z mansab yoki xizmatidan o‘z ixtiyori bilan voz kechish, ketish”, deb izohlanibdi.

Endi biroz shoirona xulosa qiladigan bo‘lsak, bu so‘zlar ichida eng yaxshisi va bizning irodamizga bog‘liq bo‘lgani – vafo ekan. Vafoda mustahkam bo‘lsangiz, qolgan ikkisi chekinib turishi mumkin.

Abduvohid HAYIT

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI

KOPIRAYTER – so‘z sehri imkoniyatlaridan mohirona foydalana oluvchi va matn orqali biror kompaniya yoki mahsulotning xaridorgir bo‘lishiga hissa qo‘shuvchi, ta’sir kuchi yuqori sotuv matnlari yozib, daromad topuvchi mutaxassis.



PODKAST – video yoki audio shakldagi, turli mavzular tahliliga bag‘ishlangan, shuningdek, biror soha vakili va aksincha turli soha mutaxassislari bilan bir mavzu doirasida qurilgan suhbat ko‘rinishidagi media mahsulot. Uni iste’molchi o‘ziga qulay vaqtda ko‘rishi, tinglashi mumkin.





KOVORKING – o‘zining ish joyi mavjud bo‘lmagan masofadan ishlovchi – frilanserlar, qolaversa, ofis qilishga qurbi yetmagan boshqa yosh ishbilarmon tadbirkorlar o‘z ishini bajarishi uchun qulay bo‘lgan umumiy joy. Bu yerda hamkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish ham mumkin.



KOUCH – turli sohalarda mutaxassislar tomonidan auditoriyadagilarning malakasini oshirishga yoki oldinga qo‘yilgan biror maqsadga erishish uchun yo‘nalish ko‘rsatishga qaratilgan mashg‘ulotlarni olib boruvchi shaxs. Bu turdagi mutaxassislar o‘rganuvchilar bilan individual yoki jamoaviy shaklda shug‘ullanishadi.

Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 5993
Lotin yozuvidagi adadi – 11971
Media kuzatuvchilar – 14522
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:00
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz